

POSTDA



НА ПОСТУ ★ AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

2026-YIL — MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI



PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OLIV MAJLIS VA O'ZBEKISTON XALQIGA MUHOJIRATNOMASIDAN:

➔ Energetika sohasida tub burilish yasalgani hisobiga elektr ishlab chiqarish hajmi **85 milliard** kilovatt-soatga yetkazdik.

➔ Bu yil **188 ta** mahalladagi **715 ming** aholi yashaydigan xonadonlarga birinchi marta toza ichimlik suvi kirib bordi, yana 2 million 300 mingga yaqin aholining suv ta'minoti yaxshilandi. Yoki 867 ta «og'ir» mahalladagi 470 mingta xonadonga tomorqalarni sug'orish uchun ilk bor suv yetib bordi.

➔ Joriy yilda aholiga 8 million 100 ming kvadrat metrli, **135 ming** xonadondan iborat ko'p qavatli uylar topshirilmoqda, odamlarning o'zi ham yashash sharoitini yaxshilash uchun 19 million kvadrat metr maydonda qurilish qildi.

➔ Biznes vakillari tomonidan **24 million** kvadrat metr noturar-joy obyektlari barpo etildi.

➔ Umuman, so'nggi to'qqiz yilda **210 million** kvadrat metrli turar-joy va noturar-joy obyektlari foydalanishga topshirildi.

➔ O'quvchi va talabalarimiz joriy yilda xalqaro fan olimpiadalarida **51 ta oltin, 101 ta kumush, 126 ta bronza** medalini qo'lga kiritib, o'z bilim va salohiyatini butun dunyoga namoyish qildi.

➔ O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston yetakchilarining mart oyida Xo'jandda bo'lib o'tgan uchrashuvida birinchi marta uch mamlakat davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi tarixiy shartnoma imzolandi hamda «Abadiy do'stlik to'g'risida»gi deklaratsiya qabul qilindi.

➔ Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasi; UNESCO Bosh konferensiyasining sessiyasi; «Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi» sammiti va xalqaro Iqlim forumiga mezbonlik qildik.



Bolalar — kelajagimiz

«UYIMGA BOROLMAYMAN, OG'A»

Tun. Atrof jim-jit. Odamlar uyquda. Ammo shu sukunat ichida bir bola ko'chada yurar, atrofga olazarak boqardi. Archazor mahallasida xizmat o'tayotgan Shovot tumani IIB voyaga yetmaganlar bo'yicha katta inspektor-psixologi, katta leytenant Surojbek Haitboyev uning yoniga bordi. Savolga tutdi.



– Demak, isming Doniyor.
– Qayerda yashaysan, uying qayerda?
– Uyimga borolmayman og'a?
– Nega?

Sababi katta leytenant bolani yashash manziliga olib borganda oydinlashdi. Ota yo'q. Ona boshqasi bilan turmush qurib, bu bolasini tashlab ketgan. Doniyor buvisi bilan qolgan. Ammo buvi ham «manglayi qora»lardan ekan. Spirtli ichimliklarga ruju qo'yganidan, tuman IIB ro'yxatida turadigan «taniqli shaxs» bo'lib chiqdi. Demak,

Doniyorning «Uyimga borolmayman», degani bejiz emas ekan. Mehr yo'q, tinchlik qahat uyda nima ham qilardi, bechora...

Katta leytenant S.Haitboyev bu holatga befarq qaramadi. Mahalla yettiligi bilan maslahatlashib, bolani avvaliga viloyat IIB huzuridagi Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirdi. Shundan so'ng onasi va buvisining yashash sharoiti, ijtimoiy holatini chuqur o'rganib, bolaning onasini onalik huquqidan mahrum

qilish masalasini ko'tardi. Doniyorga huquqiy va psixologik yordam ko'rsatdi. So'ngra psixofiziologik xususiyatlari, qobiliyatlari, ijtimoiy moslashuvi va rehabilitatsiyasi masalalarini o'rganib, tegishli hujjatlarni to'plab, Xorazm viloyati SOS bolalar shaharchasiga joylashtirdi.

Surojbek chuqur o'yga toldi. Insonni tushunish qanchalik og'irligini qalbidan o'tkazdi. Bunga o'xshash bolalar hayotiga achinar ekan, nahotki, ularning ota-onalarida mehr bo'lmasa, deya iztirob chekdi. 2019-yil Toshkentda, Shayxontohur tumanida bolalar, ota-onalar, o'qituvchilar bilan ishlagani yodiga tushdi. 2020-yilda u Shovotga kelib bunday taqdirli bolalar bilan ishlayotgani, bugun uchratgan Doniyor kabi bolalarning mungli nigohlari qalbini ezdi. Ota-onalarining beo'y, bandisha, bezbetligi nafratini qo'zg'adi.

Ammo u bugun Doniyorning ichidagi og'irlikni yengillashtirganidan, taqdir yo'lini yaxshi tomonga burishga yordamlashganidan qanoat hosil qildi. Xizmati ezigulik, maqsadi ro'shnolik ekanligidan qalbi tinchlandi.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

Inson qadri — ulug'

SAXOVATDAN
QUVONGAN QALBLAR

Rishton tumanining «Pandidon» mahallasida istiqomat qiluvchi Bibisora Oxunjonova 8 yoshda, akasi Humoyunmirzo esa 10 yoshda. Ularning dadasi safdor Sarvarjon Egamberdiyev yo'l-patrul xizmati xodimi edi. Ming afsuski, joriy yil boshida xizmat paytida bevaqt halok bo'ldi.

Bibisora har gal Yangi yil bayrami arafasida dadasi-ning sovg'a ko'tarib kelishiga o'rganib qolgandi. Bu gal esa bayram yaqinlashgani sari ko'zlari mahzun bo'la boshladi. Humoyunmirzo esa garchi dadasini sog'ingan bo'lsa-da, o'g'il bola bo'lganligi uchun sog'inchini sezdirmaslikka, singlisini ovutishga harakat qilardi.

Yangi yil kirib kelishidan 3 kun avval ularning darvozasi taqilladi. Bibisora yugurib borib ochgan edi, qo'lida sovg'a ko'targan yo'l-patrul xizmati xodimlari turganini ko'rdi. Mehmonlar dadasining safdoshlari edi.

Beixtiyor qizcha yig'lab yubordi. Xuddi dadasi kirib kelganday tuyuldi. Qo'lida bayram sovg'asi ko'targan, xizmat kiyimidagi istarasi issiq bir inson uning peshonasidan o'pdi. Bibisora esa o'z otasining mehrini bir zum his etdi.

Marhum safdor Sarvarjon Egamberdiyevning turmush o'rtog'i Gullolaxon Egamberdiyeva ham bunday yo'qlovdan behad minnatdor bo'ldi.

Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi mas'ullari bu xonadonga quruq qo'l bilan borishgani yo'q. Xodimning oilasiga 1 dona yangi gaz plitasi sovg'a qilindi. Marhum hayotlik paytida kredit olgan bo'lib, uning 2.700.000 so'm miqdoridagi to'lanmay qolgan qismi ham hamkasblar tomonidan qoplab berildi. Shuningdek, bayram munosabati bilan moddiy yordam va oziq-ovqat mahsulotlari tortiq etildi.

Boshqarma mas'ullari Uchko'prik tumani IIB YHXG-da inspektor bo'lib ishlagan katta serjant Abduqahhor Sulaymonov hamda Beshariq tumani IIB YHXG katta inspektori lavozimida xizmat qilgan marhum serjant Sherzodjon Yormatovlarning xonadoniga ham borib, xodimlarning oilasi va farzandlari holidan xabar olishdi. Har ikki xonadonga ham bayram sovg'alari topshirildi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

Shunday xizmat bor

BU MAYDA GAP EMAS



Safdor Feruz Tojiyev ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini 2014-yilda boshlagan. Navoiy shahar IIB Tashkiliy bo'limi Navbatchilik qismi navbatchi yordamchisi vazifasida xizmat qilyapti. Shuningdek, IIV Akademiyasida sirdan tahsil olmoqda.

Navbatchilik qismi — bu bamisoli ichki ishlar organining yuragi. Fuqarolar kechasi-yu kunduzi qo'ng'iroq qilishadi. Lavhamiz qahramoni hech bir murojaatga hech qachon «bu mayda masala» qabilida yondashmaydi.

Masalan, bir kuni kechasi mahallalarning biridan oilaviy janjal haqida xabar kelib tushdi. Feruz Tojiyev vaziyatga jiddiy yondashib, tergov-tezkor guruhini zudlik bilan voqea joyiga yo'naltirdi. Ma'lum bo'lishicha mast holatdagi erkak qo'lga pichoq olib, qo'shnilarning eshigini taqillatib, ularni haqorat qilayotgan ekan. Janjal o'z vaqtida bartaraf etildi.

Yana bir holatda, tungi mahal o'smir yo'qolib qolgani haqida xabar berildi. Safdor F. Tojiyev axborotni aniq qayd etib, barcha patrul-post xizmati naryadlarini bundan xabardor qildi. Qisqa vaqt ichida bola xodimlar tomonidan sog'-salomat holda topilib, ota-onasiga topshirildi. Ana shunday vaziyatlarda navbatchining e'tibori, tezkorligi va mas'uliyati katta ahamiyat kasb etadi.

Feruz xizmatda o'ziga talabchan, o'zgalar bilan muloqotda esa vazmin va xushmuomala. U fuqarolar bilan suhbatda hamisha sabrli. Ayrim hollarda asabi, xavotirlangan yoki tushkun kayfiyatdagi qo'ng'iroq qiluvchilarni diqqat bilan tinglab, ularni xotirjamlikka undaydi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



► Voleybol — 2025

SALMOQLI NATIJALAR SARHISOBI



Jahon miqiyosidagi yirik sport musobaqalarida yurtimiz sportchilari sharafiga O'zbekiston madhiyasi yangrab, davlatimiz bayrog'i baland ko'tarilmoqda. Yakuniga yetgan yilda U-19 erkaklar milliy terma jamoalari o'rtasidagi jahon chempionati dunyo voleybol ishqibozlari diqqat-e'tiborini O'zbekiston sport maydonlariga qaratdi. Respublikamizda ilk bor tashkil etilgan ushbu chempionat mamlakatimizda sportni rivojlantirishga qaratilayotgan yuksak e'tiborning amaliy natijasi bo'ldi, desak aslo mubolag'a emas.



«Renessans» kino markazida voleybol sport turi bo'yicha 2025-yil sarhisobiga bag'ishlangan tadbir-da ana shunday salmoqli natijalar ta'kidlandi. Unda Ichki ishlar vaziri o'rinbosarlari – general-mayor Davron Nazarmuhammedov va polkovnik Ramazon Ashrapov, Sport vaziri o'rinbosari Shaxrillo Mahmudov, O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi bosh kotibi Oybek Qosimov hamda bir qator tegishli tashkilot va idoralar vakillari ishtirok etdi.

Shu o'rinda 2025-yil davomida O'zbekiston voleybol federatsiyasi tomonidan mamlakatda ushbu sport turini rivojlantirish, yosh voleybolchilarni tayyorlash, mutaxassislar salohiyatini oshirish hamda xalqaro aloqalarni mustahkamlash yo'nalishida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilganligini ta'kidlash joiz.

Xususan, U-19 jahon chempionatiga tayyorgarlik ko'rish maqsadida O'zbekiston terma jamoasi voleybolchilari Rossiya, Belarus va Sloveniya davlatlarida o'quv-yig'in mashg'ulotlarida ishtirok etdi. Ushbu mashg'ulotlar yosh sportchilarning tajribasini, mahoratini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Respublika miqyosida 40 dan ortiq mahalliy musobaqalar tashkil etildi. Shuningdek, 8 ta xalqaro musobaqaga yuqori saviyada tayyorgarlik ko'rib, ushbu mu-

sobaqalarga mezbonlik qilindi. O'zbekiston chempionati, O'zbekiston kubogi, o'quv-yig'in mashg'ulotlari hamda

«Besh tashabbus» doirasidagi musobaqalar muntazam va samarali o'tkazildi. Ayniqsa, O'zbekiston kubogi musobaqasida ilk bor ayol-

O'zbekiston voleybol federatsiyasi uchun 2025-yil xalqaro maydondagi hamkorliklarda ham samarali bo'ldi. Bangkok shahrida AVC shtab-kvartirasi ochilishida mamlakatimiz voleybol federatsiyasi delegatsiyasi ishtirok etdi. Tashrif davomida esa FIVB prezidenti Fabio Azevedo va AVC prezidenti Ramon Suzaralar bi-



lar jamoalari soni 15 taga, erkaklar jamoalari esa 24 taga yetdi.

– Men uch yildan buyon O'zbekiston terma jamoasi tarkibida o'ynayman, – deydi Kristina Hasanova. – Bugun «Eng yaxshi yosh voleybolchi» (qizlar o'rtasida) nominatsiyasiga loyiq topilganimdan juda xursandman. Bu e'tirof meni kelgusidagi sport musobaqalariga yanada yaxshi tayyorlanish, mashg'ulotlarni ko'tarinki kayfiyat va qat'iyat bilan davom ettirishga ruhlantiradi.

lan muzokaralar o'tkazildi. Shuningdek, 2024-yilda Neapol shahrida bo'lib o'tgan AVC yil yakuni tadbirida O'zbekiston voleybol federatsiyasi qator nominatsiyalar bo'yicha g'olib deb topildi. Ayniqsa, FIVB xalqaro hakam toifasini olgan 21 nafar hakamdan 3 nafari O'zbekiston vakillari ekanligi quvonarli natija bo'ldi.

Shuningdek, sohil voleybolini rivojlantirish borasida ham sezilarli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Buxoro viloyatidagi 200 ta maktabda sohil voleyboli maydonlari tayyorlan-

gan bo'lsa, «JAR» sport-sog'lomlashtirish majmuasi va «Kamalak» sog'lomlashtirish oromgohida xalqaro standartlarga javob beradigan sohil voleyboli maydonlari qurilib, foydalanishga topshirildi.

– Biz sportchilar uchun yaratilgan shart-sharoit va imkoniyatlardan unumli foydalanib, yaxshi natijalar ko'rsatishimiz shart, – deydi IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Yo'l harakati xavfsizligi xizmati «Road Patrol» hamda O'zbekiston terma jamoalari a'zosi Saidjamol Mirobidinov. – 2025-yil jamoamiz uchun omadli keldi. O'zbekiston kubogi g'olibi, O'zbekiston chempionati chempioni bo'ldik. Bugungi tadbirida «Kattalar o'rtasida eng yaxshi voleybolchi» (erkaklar o'rtasida) nominatsiyasi g'olibi deb topildim. Menga bildirilgan bu ishonchni oqlashga harakat qilaman.

Yil yakunlari sarhisob qilingan tadbirida sportchilar bilan bir qatorda respublika va xalqaro musobaqalarni o'tkazishda faol ishtirok etgan qator vazirlik va idoralar vakillari, hakamlar, murabbiylardan iborat sport fidoyilari ham taqdirlandi.

Umuman olganda, 2025-yilda O'zbekiston voleybol federatsiyasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar mamlakatda mazkur sport turining ommalashuvi, yoshlar va mutaxassislar salohiyatining oshishi hamda xalqaro nufuzning mustahkamlanishiga a'lo darajada xizmat qildi.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

YASHIL MAKON — YASHIL KELAJAK



Andijon viloyati Xo'jaobod tumanida joylashgan dala o'quv poligonida Andijon viloyati IIB uchun ajratilgan hududda «Yashil makon» umummilliy dasturi doirasida ko'kalamzorlashtirish tadbiri o'tkazildi. Unda sohaviy xizmatlar, mustaqil boshqarmalar hamda shahar-tuman ichki ishlar organlari xodimlari faol ishtirok etib, hududning iqlim va tuproq sharoitiga mos, manzarali hamda atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi 1000 tupga yaqin daraxt ko'chatlari ekildi. Tadbir ekologik muhitni yaxshilash, havo musaffoligini ta'minlash hamda xizmat olib borilayotgan hududlarda sog'lom va yashil muhit yaratishga qaratilgan amaliy tashabbus sifatida ahamiyat kasb etdi.

O'z muxbirimiz.



2025-YILDA:

IQTISODIY MUHIT

Qulay biznes muhiti, inflyatsiyaning bir xonali darajaga tushirilishi va arzon kreditlar natijasida aholining xarid qobiliyati **2 barobar** oshdi.



DAROMAD VA ISTE'MOL

2025-yilda **270 ming** uy va **1 million** avtomobil xarid qilindi. Ko'chmas mulk va avtomobil bozori **20 milliard** dollarga yetdi.



IJTIMOIY FIKR

O'tkazilgan so'rovlar **75 foiz** aholining moliyaviy holati keskin yaxshilanganini ko'rsatdi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan

► Soha fidoyisi

MAS'ULIYATNI HIS QILIB

Kogon shahar IIB Tashkiliy bo'linmasi Navbatchilik qismi katta inspektor-navbatchisi, mayor **Mirzohid Karimov** har gal navbatchilik payti hushyorlikni oshirib, murojaatchilarni qiziqtirgan masalalar bo'yicha zarur maslahat yoki amaliy yordam berib kelmoqda.



Darhaqiqat, chorak asrdan beri ichki ishlar organlarida faoliyat ko'rsatib kelayotgan mayor M. Karimov o'tgan yillar davomida ko'plab jinoyatlarni «issiq izida» ochishda, sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olish borasida ibratli ishlarni amalga oshirdi. Shu bois ham xizmatlari inobatga olinib, 2025-yilda I darajali «Benuqson xizmatlari uchun» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

2025-yilning 29-oktabr kuni ertalab bir kishi shahar IIB navbatchilik qismiga kirib keldi. U o'zini Maxtumquli nomli mahallada yashovchi A. Ikrom (ismlar o'zgartirildi) deb tanishtirdi. So'ng kelishining boisini qisqacha tushuntirdi. Ma'lum bo'lishicha, kechasi «Damas» rusumli avtomashinasini darvozasida qoldirib, uyiga kirgan ekan. Tongga yaqin avtomashinasini qizdirish uchun tashqariga chiqqanida esa eshigi ochiqligini ko'rib, darrov saloni ko'zdan kechirdi. Qarasa, 2 million 200 ming so'm naqd puli, shaxsini taqdiqlovchi hujjati, haydovchilik guvohnomasi va avtotransport vositasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma joyida yo'q ekan. Lavhamiz qahramoni darhol tergov-tezkor guruhini oyoqqa turg'azdi.

Voqea joyini ko'zdan kechirgan tergov-tezkor guruhi a'zolari hamda hududiy profilaktika inspektori gumon qilinuvchi shaxsni

aniqlab, ushbu jinoyatni ochishdi. O'g'riga nisbatan esa jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Yana bir misol. Yaqinda kech soat 22:00 larda shahar IIB Navbatchilik qismiga bir ayol qo'ng'iroq qilib, eri S.K. mast holda janjal ko'tarayotgani haqida xabar qildi. Zudlik bilan tergov-tezkor guruhini voqea joyiga jo'natgan mayor M. Karimov yuz berishi mumkin bo'lgan jinoyatning o'z vaqtida oldini oldi.

– Mayor Mirzohid Karimov jamoamizning tajribali xodimlaridan. Uni jamoada hamma hurmat qiladi, ustoz-maslahatchi deb biladi. U bilganlarini o'rgatishdan, tajribalarini so'zlab berishdan erinmaydi. Qolaversa, har bir murojaat etuvchining arzini diqqat bilan eshitadi. Bundan tashqari, o'ta hushyorligi va fuqarolar bilan muloqot chog'ida xushmuomalaligi tahsinga loyiq, – deydi shahar IIB Tashkiliy bo'linma boshlig'i, podpolkovnik Alisher Tursunov.

– Qiyin damlarda kimgadir yordamim tegayotganidan quvonaman. Ana shunday lahzalarda tanlagan kasbim naqadar kerakli va savobli ekanligini his etaman. To'ng'ich o'g'lim Sardorbek kasbimni davom ettirish niyati bor. U ayni paytda O'zbekiston Respublikasi FVV akademiyasida tahsil olmoqda. Bu chinakam baxt emasmi? – deydi mayor M. Karimov.

Navbatchilik qismida xizmat qilayotganlarning ishini chetdan kuzatgan kishi «Ular bor-yo'g'i telefon qo'ng'iroqlariga javob berib o'tirisharkan-da», deya o'ylashi mumkin. Biroq bu yanglish fikr. Chunki bu sohani bejiz ichki ishlar organining yuragiga qiyoslashmaydi. Soha vakillari esa el tinchligi yo'lida tun-u kun orom nimaligini bilishmaydi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

► Inson qadri uchun

HAR BIR MUROJAAT E'TIBORDA

Yaqinda Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi «Sadoqat» bog'i Ma'naviyat markazida jazoni ijro etish tizimiga oid masalalar bo'yicha sayyor qabul tashkil etildi.



Sayyor qabulda 123 nafar fuqaro qatnashib, ulardan 106 nafari IIV huzuridagi JIED departament rahbariyatiga o'z murojaatlarini taqdim qildi. Murojaatlar asosan mahkumlarni yashash manziliga yaqin muassasalarga o'tkazish, afv etish, ularning sog'lig'iga doir muammolar va jazosini yengilrog'iga almashtirish kabi masalalar yuzasidan edi.

Murojaatlarning 35 foizi joyida hal etildi. Fuqarolar o'zlarini qiynayotgan masalalar bo'yicha aniq, huquqiy asoslangan javob oldilar. Qolgan 65 foiz murojaat esa kompleks o'rganish va sohaviy idoralar bilan hamkorlikda choralar ko'rilishini talab etishi tufayli nazoratga olindi. Ularni hal etish bo'yicha mas'ul rahbarlarga aniq vazifalar yuklatildi.

Shahrizod SHOKIROV,
kapitan.



A NEW CHAPTER: WE ARE GOING GLOBAL WITH ENGLISH PUBLICATIONS

«Postda – Ha nocty» is the official publication of the Ministry of internal affairs of the Republic of Uzbekistan, with a circulation of over 50,000 copies. The newspaper covers key events in the field of law enforcement, featuring stories of heroic deeds, the achievements of young officers, and the legacy of veterans. It provides deep insights into crime investigations and anti-corruption efforts while also offering diverse lifestyle content, including celebrity interviews, health tips, and public interest articles, making it an engaging and authoritative source for both professionals and the general public.

Dear readers, the world is rapidly evolving, and information is becoming more borderless than ever. Today, the Ministry of internal affairs of Uzbekistan is undergoing a profound transformation, becoming more transparent, tech-savvy, and people-centric.

To ensure our progress is recognized not only within our borders but also on the global stage, we are expanding our horizons.

With the aim of enhancing the image of the modern law enforcement officer and reaching an international audience, it has been decided to launch a dedicated newspaper page in English.

What will we share with the world?

From issue to issue, international experts, foreign partners, and english-speaking readers worldwide will receive firsthand ac-

counts of the large-scale reforms within the Ministry. Our content will cover a diverse range of topics:

Why does this matter?

We aim to showcase the face of the renewed Internal Affairs bodies: humane, professional, and efficient.

We invite you to be part of this new chapter. Stay tuned for our upcoming materials – now in the language of global communication!



Overview of the key political event of the year: President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev delivered an Address to the Oliy Majlis and the people of the country. The outcomes of the reforms were summarized, and strategic horizons for further development were outlined. 2026 is declared as the Year of Mahalla Development and Community Prosperity.

«In the past years, the country has increasingly become an international dialogue platform for discussing global issues. In particular, this year Uzbekistan hosted the 150th anniversary Assembly of the Inter-Parliamentary Union, session of the UNESCO General Conference, the Central Asia – European Union Summit and the International Climate Forum».

* * *

«The program for new year will address such pressing issues the transformation of more than 9 thousand mahallas in our country into centers of kindness, solidarity, justice, and education.

– We are entering a decisive stage in building the New Uzbekistan. Our work in this direction requires deep transformation in every sphere and sector.

Our goal is clear: in the coming years, to join the ranks of upper-middle-income countries».

► Devoted to the Profession ◀

GUARDIAN OF THE ROADS: WHEN SERVICE BECOMES A CALLING

Senior sergeant Farhod Egamberdiyev, an inspector of the Road patrol service under the Main Department of internal affairs of Tashkent city, has demonstrated an exemplary commitment to nobility and duty since beginning his service in 2008. Beyond the strict discipline of his uniform lies a compassionate individual who views his role not merely as enforcing regulations, but as a mission to assist the public and cultivate a culture of mutual respect on the roads. A defining

testament to his humanity is the time he provided an emergency escort for a family rushing to a maternity hospital; moved by his selfless help, the grateful parents decided to name their newborn son in his honor. Farhod Egamberdiyev personifies the modern guardian of peace a dedicated professional ready to aid any driver in distress regardless of the conditions, steadfast in his belief that kindness and respect toward citizens are the ultimate benchmarks of the entire internal affairs system.



► Canine Division ◀

FAITHFUL PARTNERS

The Canine Division of the Public Safety Department under the Syrdarya Regional internal affairs bureau maintains a specialized unit of nearly twenty pedigree dogs, rigorously trained in narcotics detection, explosives identification, and criminal tracking. The operational success of these animals is built upon a foundation of scientific care and precise training



managed by veterinarian lieutenant Shukhrat Ergashev, who ensures each dog receives a nutrient-rich diet and a personalized physical regimen to maintain constant mission readiness.

Among the unit's most distinguished officers is junior inspector-cynologist private Hasan Kholjigitov, who has contributed to solving dozens of crimes alongside his assigned German Shepherd. Kholjigitov attributes their success to a bond rooted in compassion, noting that when treated with care and affection, a service dog becomes a loyal partner capable of executing the most demanding tasks with excellence.

This professional synergy was recently demonstrated during a night shift in the city of Gulistan following a retail burglary. Despite initial difficulties at the crime scene, the canine

unit successfully picked up the scent and led investigators to a private residence, alerting them to a haystack where the stolen valuables were discovered hidden beneath the straw. Such successes are common for the Syrdarya cynological service, yet the officers often remain humble about their achievements, embodying the true spirit of dedication and human excellence that defines the modern internal affairs system.

► A Sacred Haven ◀

THE HARMONY OF DUTY AND FAMILY

Lieutenant Humora Mukimjonova, a graduate of the Academy of the Ministry of internal affairs, exemplifies a perfect balance between professional duty and family values. In 2025, she embarked on her career as an inspector-psychologist at the Department for coordination



of internal affairs activities in Fergana city, while simultaneously embracing her new role as a daughter-in-law in the esteemed Nazarov family. Inspired by her father's example since childhood, Humora pursued her dream of serving in law enforcement and now successfully manages her responsibilities across three educational institutions—focusing on juvenile delinquency prevention—alongside her traditional household duties. Her mother-

in-law, Yorkinoy Nazarova, proudly commends Humora's diligence and culinary talents, noting that in a family of dedicated civil servants, her demanding service is met with profound understanding and support. Lieutenant Mukimjonova considers the opportunity to serve her Motherland while receiving the blessings of her elders and the steadfast support of her husband, Bekhzodjon Kadirov, to be her greatest happiness. She truly embodies the image of the modern Uzbek woman: a dedicated professional and a devoted guardian of the hearth.



► Yoshlar — kelajak bunyodkori

SO‘ZIDA QAT‘IYAT, KO‘ZIDA CHAQIN

Yuqorichirchiq tumanlararo Qo‘riqlash bo‘limi otryad komandiri, katta leytenant Bekzod O‘ktamov bolaligidan sportga mehr qo‘yib ulg‘aydi. 2014–2016-yillarda dzyudo bo‘yicha yoshlar o‘rtasida O‘zbekiston chempionligini qo‘lga kiritdi. Xalqaro musobaqalarda ham yurtimiz sharafigini munosib himoya qilib, sovrinli o‘rinlarni egalladi. U har safar harbiy libos kiyganlarni ko‘rganida, vatanparvarlik tuyg‘ulari yanada mavjlanardi. Shu bois Jismoniy tarbiya va sport universitetini tamomlagach, otasiga ichki ishlar organlariga xizmatga kirish niyati borligini aytdi.

– Bekzodjon juda tirish-qoq yigit. Oldiga biror maqsad qo‘ydimi, albatta, uni amalga oshirmagunicha tinchimaydi, – deydi otasi Asqar Xatamov. – Xizmatga kirmoqchi ekanligini aytganida, o‘g‘limizning niyati qat‘iyligini ko‘rib, onasi ikkimiz uni qo‘llab-quvvatladi. Aslida farzandining qiziqishlari, orzulariga esh bo‘lish har bir ota-onaning vazifasidir. Biz hozirgacha uning mas‘uliyatli sohada zimmasidagi vazifalarini to‘kis ado etishida qo‘limizdan kelgan yordamimizni ayamaymiz.

Ota-onaning oltinga teng duosi, qo‘llovi har bir farzand uchun omad eshiklarini ochuvchi eng birinchi kalitdir. Bekzod uchun ham shunday bo‘ldi. U ilk xizmatini 2021-yilda Toshkent tumani Qo‘riqlash bo‘limi safdor xodimi sifatida boshladi. Qisqa vaqt ichida o‘zining xizmat-



ga munosabati, intizomi, xushmuomalaligi bilan rahbariyat, hamkasblari e‘tiborini qozondi. Aynan ana shu fazilatlar sababli, u qisqa muddat ichida ofitser bo‘ldi, otryad komandiri lavozimiga loyiq ko‘rildi.

– Katta leytenant Bekzod O‘ktamov yosh, ammo

o‘ziga nisbatan talabchan xodimlarimizdan, – deydi Yuqorichirchiq tumanlararo Qo‘riqlash bo‘limi boshlig‘i, podpolkovnik Iskandar Xolmedov. – Har bir topshiriqqa sidqidildan yondashib, uni o‘z vaqtida sifatli bajarishga harakat qiladi. O‘q otishda mergan-

ligi, yugurishda chaqqonligi, jismoniy mashqlarda bardamligi bilan ajralib turadi.

Lavhamiz qahramoni oilasini ruhiy quvvat manbayi deb biladi. Shu bois xizmatdan keyin Parkentdagi shinamgina xonadoni, yaqinlari bag‘riga oshiqadi.

Imkon topdi deguncha hovli, bog‘-rog‘, ekin-tikin ishlariga yordamlashadi. U rafiqasi Sevaraxon bilan qizalog‘i Yasminaxonga mehr va e‘tibor ko‘rsatishni yoqtiradi.

– Inson g‘ayrat qilsa, ko‘p ishlarni uddasidan chiqishi mumkin, – deydi lavhamiz qahramoni. – Men hozirgacha ko‘nglimga tukkan barcha niyatlaringa ketma-ketlikda erishib kelyapman va bundan xursandman. Inson yashayaptimi, u to‘xtab qolmasligi kerak. Atrofga teran nigoh tashlab, o‘zini yangitdan kashf etib, yo‘lida davom etishi lozim.

Ha, Bekzod O‘ktamov bugunning yoshlariga xos fikrlari teran, zamon bilan hamqadam xodimlardan biri. Uning so‘zlari-dagi qat‘iyat, ko‘zlaridagi g‘ayrat, qalbidagi intilish ichki ishlar organlaridek mas‘uliyatli sohada tobora o‘zini topib borishida muhim omil ekanligiga ishonchimiz komil.

Gulnoza TURG‘UNBOYEVA,
o‘z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.

► Probatsiya

ADASHGANGA IMKONIYAT

Samarqand shahridan 100 km uzoqlikdagi Qo‘shrabot tumanining barcha qishlog‘u mahallalarida ichki ishlar xodimlari har kuni aholi bilan hamnafas. Fuqarolarga ko‘mak berish xodimlar uchun faqat xizmat vazifasi emas, balki inson taqdiriga daxldor masaladir.

Bugun tuman hududida osoyishtalikni ta‘minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi keskin va murosasiz kurashish, salbiy holatlarning oldini olish, inson manfaatlarini e‘zozlash hamda halol xizmat tamoyillari ustuvor mezoniga aylangan.

Qo‘shrabot tumani IIB JXX Probatsiya guruhi katta inspektori mayor Nuriddin Ismatov har kuni qo‘lida hujjatlar, xizmat daftari bilan turli manzillarga yo‘l oladi. Probatsiya nazoratida turgan har bir shaxs uning uchun muammosi bor inson. Muammoni hal etishga ko‘maklashish esa lavhamiz qahramonining burchi. U suhbat orqali nazorat ostidagi shaxsga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi. Qonunni buzgan yoshlarga xatosini anglatib, ishga joylashishi, oilasi bilan munosabatlarini yaxshilashi, qayta yo‘ldan adashmasligida yordam beradi.

Probatsiya hisobida turgan fuqaroning uyida nizoli vaziyat kuzatilsa, lavhamiz qaharmoni albatta o‘sha yerda. Oilaviy janjallar, ijtimoiy qiyinchiliklar, ishsizlik: bularning bar-



chasi turli huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Osoyishtalik avvalo oilalardan, xonadonlardan boshlanadi.

– Bilib-bilmay jinoyat ko‘chasiga kirib qolgan o‘smirlar bir necha oydan keyin bu ishidan afsusla-

nishadi. Ular profilaktik targ‘ibot tadbirlaridan to‘g‘ri xulosa chiqarishadi. Shunday paytda ularga bildirilgan ishonch muhim, katta imkoniyat. Do‘stona munosabatda bo‘lib, qo‘llab-quvvatlansa, to‘g‘ri tushuncha berilsa, aksariyati ijo-

biy tomonga o‘zgaradi. Bu esa xizmatimizning eng katta yutug‘i, – deydi mayor Nuriddin Ismatov.

Joriy yilda 111 nafar axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlangan shaxs probatsiya hisobiga olindi. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi bilan hamkorlikda ular ishga joylashtirilib, sud tomonidan tayinlangan jazo ijrosi ta‘minlanmoqda. Jumladan, 2 yil 5 oy muddatga axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlangan «Qo‘rolos» mahallasida yashovchi H.S. tumandagi mebel tayyorlash korxonasiga ishga joylashtirildi. Uning xulqi, ishdagi tartib-intizomi doimiy nazorat qilib kelinmoqda.

Tuman aholisi mayor Nuriddin Ismatovni yaxshi biladi. Uning mahallalarda bo‘lishi, yoshlar bilan suhbatlashishi, probatsiya hisobida turuvchi fuqarolar yashaydigan nizoli oilalarni nazorat qilishi odatiy hol. Maqsad Qo‘shrabotda osoyishtalikni ta‘minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasini kuchaytirish va adashgan insonlarni to‘g‘ri yo‘lga qaytarish.

Umida MAMADALIYEVA,
o‘z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.





Ichki ishlar organlari faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etmasdan turib, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish tizimini tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu borada Jizzax viloyati IIB Raqamli texnologiyalar xizmati tomonidan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Kapitan Ulug'bek Ismoilov viloyat IIB Raqamli texnologiyalar bo'limi bosh mutaxassisi sifatida viloyatdagi axborot infratuzilmasini rivojlantirishga munosib hissa qo'shmoqda. O'tgan 2025-yil davomida uning boshchiligidagi mutaxassislar tomonidan viloyat miqyosida texnologik yangilanishlar amalga oshirildi. Xususan, shahar va tuman IIBdagi so'roqxonalar hamda vaqtincha ushlab turish izolyatorlaridagi kuzatuv kameralari to'liq raqamlashtirilib, tizim rahbariyatining xizmat xonalariga integratsiya qilindi. Bu esa xizmat jarayonida shaffoflik va qonuniylilikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ra-vonlikdan himoya qilish maqsadida «E-Himoya» tizimi ishga tushirildi. Shuningdek, probatsiya nazoratidagi shaxslar bilan ishlashni raqamlashtirish maqsadida barcha tuman bo'limlari himoyalangan VPN aloqa kanallari bilan ta'minlandi. Jizzax shahridagi muhim chorrahalar va jamoat joylari-

ga o'rnatilgan «Hikvision» kameralari, shuningdek, yirik savdo majmualari va Zomin tumanidagi turizm obyektlari kuzatuv tizimlari yagona monitoring markaziga ulandi.

Ayniqsa, ommaviy tadbirlar va maxsus-taktik o'quv mashg'ulotlari davomida uzluksiz aloqani ta'minlash borasidagi ishlar diqqatga sazovor. Zomin tumanida o'tkazilgan II Xalqaro maqom anjumani davrida 225 ta kuzatuv kamerasi va 11 ta retranslyator o'rnatilgani, mingga yaqin radioaloqa vositalari sozlangani tadbirning yuqori darajada xavfsiz o'tishini ta'minladi.

Shuningdek, viloyatga kirish-chiqish maskanlari bo'lgan «Sangzor-15», «Yakkabog'-15» va «Manas-14» postlarida transport vositalarining davlat raqamini aniqlovchi zamonaviy kameralarning o'rnatilishi qidiruvdagi va qoidabuzar transport vositalarini zudlik bilan aniqlash imkonini bermoqda.

Kapitan Ulug'bek Ismoilov kabi mutaxassislarning sa'y-harakatlari bilan viloyat ichki ishlar organlarida «Raqamli ichki ishlar organlari» konsepsiyasi hayotga tatbiq etilmoqda. Bu nafaqat soha xodimlari ishini yengillashtiradi, balki fuqarolarning tinchligi va xavfsizligini ta'minlashda eng ishonchli qalqon bo'lib xizmat qiladi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

Abu KENJAYEV olgan surat.

► Yoshlar — kelajak bunyodkori

ISHTIYOQNING SHIRIN MEVASI

Sariosiyo tumani IIB huzuridagi Tergov guruhi surishtiruvchisi, leytenant Aslbek Amonqulovning kasbga bo'lgan muhabbati vazirlik Akademiyasida tahsil olgan yillaridayoq yaqqol ko'zga tashlangan. O'qish davomida barcha tadbirlarda faol qatnashib, a'lo baholarga o'qishi uning kelgusidagi muvaffaqiyatli faoliyatiga mustahkam zamin yaratdi.

Xizmat faoliyatini boshlagan dastlabki kunlardan Aslbek Amonqulov firibgarlik, giyohvandlik moddalarining oldi-sotdisi, yo'l-transport hodisalari, o'g'rilik kabi jinoyatlarni fosh etishda o'z salohiyatini amalda namoyon eta oldi. Har bir ishga chuqur yondashish, dalillarni sinchkovlik bilan tahlil qilish va qonun doirasida qat'iy qaror qabul qilish ish uslubining asosiy mezonlariga aylandi.

Leytenant Aslbek Amonqulov xizmatdan tashqari vaqtlarda ham o'z ustida ishlashni unutmaydi. Kitob mutolaasi — kundalik odati. Ayniqsa, jahon adabiyoti namunalari, xususan, Jek London asarlari unga ruhiy barqarorlik, hayotiy saboq va iroda bag'ishlaydi. Shuningdek, jismoniy tayyorgarlikka katta ahamiyat qaratadi. Futbol uning sevimli mashg'uloti bo'lib, bu orqali u

jamoaviylik, tezkor qaror qabul qilish va chidamlilikni mustahkamlaydi.

— Inson hayotda chiniqishi kerak. Sport jisman tanamizni chiniqtirsa, badiiy adabiyotlar ma'naviy olamimizni boyitadi, irodamizni toblaydi, — deydi leytenant Aslbek Amonqulov.

O'tgan yili «Eng yaxshi tergovchi» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan lavhamiz qahramoni respublika bosqichida ham jamoasi bilan birga birinchi o'rinni egallashga muvaffaq bo'ldi.

Yosh surishtiruvchining rejalari ulkan. U kelgusida bilim va tajribasini yanada oshirib, jinoyatchilikka qarshi kurashga munosib hissa qo'shishni, ishonchni oqlashni o'zining bosh maqsadi deb biladi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.
Surxondaryo viloyati.



► Ota quvonchi

BUNDAN ORTIQ BAXT BORMI?!

deydi IIV Akademiyasi kursantining otasi safdor Zohidjon O'razimbetov

Yil yakuniga yetganida, har bir inson beixtiyor ortiga nazar tashlaydi, nimalarga erishganini sarhisob qiladi. Shu nuqtayi nazardan 2025-yil safdor Zohidjon O'razimbetov uchun quvonchli kechdi. Sababi, o'g'li Sohibjon Sobirov imtiyozli tavsiyanoma asosida O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasiga o'qishga kirdi.

— O'g'lim Sohibjon maktabda o'qib yurgan kezlari men kabi ichki ishlar organi xodimi bo'lish niyati bor ekanligini aytib qoldi, — deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV 2-mintaqaviy hudud Yo'l-patrul xizmati otryadi YPX inspektori, safdor Zohidjon O'razimbetov. — Shundan so'ng o'qishni

Nukus shahridagi IIV Akademik litseyda davom ettirdi. 2024-yili farzandimga imtiyozli tavsiyanomaga ega bo'ldim. Lekin o'g'lim o'sha yili omadi chopmay, IIV Akademiyasiga kira olmadi. Unga aslo ko'nglini cho'ktirmay, yanada puxtarok tayyorgarlik ko'rishi kerakligini uqtirib, dalda bo'ldim. O'z ustida ishlashi samara berib, 2025-yilda IIV Akademiyasi kursantlari safidan o'rin oldi. Barcha ota-onalar farzandining yutug'i, kamolini ko'rishdan cheksiz quvonadi. Axir, bundan ortiq baxt bormi?!

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.



► Oramizdagi qahramonlar

CHIQINDINI CHIG'IRIQDAN O'TKAZIB

millionerga aylangan ayol

Xorijga ishlash uchun ketgan kattaqo'rg'onlik Gulmira Jumayeva muhojirlikning qiyin kunlarini boshidan kechirdi. Qo'li ishda bo'ldi. Yuragi Vatani sog'inchi bilan to'lg'ondi. Har kuni ishda toblanib, o'zidagi yangi qirralarni kashf etar, qalbida ulkan rejalar tug'yon urib, katta orzuga aylanib borardi. Shu maqsadlari ro'yobi uchun ishdan keyin ham dam olmas, boshqa bir ish o'rganar, atrofdagilarni kuzatardi. Musofirchilik unga vaqtni qadrlashni, odamlar bilan ishlashni o'rgatdi. Har bir qiyinchilik saboq bo'ldi, sabrning qimmatini, mehnatning rohatini angladi. Ammo, baribir bir kuni o'z ishimni boshlayman, degan istak uni bir dam tinch qo'ymasdi.

2016-yilda yurt sog'inchi qumsab Vatanga qaytdi. Ayrimlar kabi bir chemodan matoh yoki pul emas, hayotiy tajriba va ishonch ham olib keldi. Ishlab chiqarish hududlari, shahar chetlarida yig'ilib qolgan chiqindilar, ayniqsa plastik buyumlar uni o'ziga rom etar, «axir bular chiqindi emas, yangi mahsulot xom ashyosi, tayyor imkoniyat-ku», – deb o'ylardi u. Hech ikkilanmay tadbirkorlik faoliyatini boshladi. Chiqindini qayta ishlab, granula ishlab chiqaradigan kichik korxona ochdi. Birovlarning gapiga qaramadi. Har to'siqni imtihon deb bildi. Qayta ishlangan granulalarni qo'lga olgach, ko'ngli yorisha boshladi.

– Gulmira opa ishchilarga bugun qayta ishlangan bir kilogramm chiqindidan tayyorlangan granula, nafaqat tayyor mahsulot xomashyosi, balki ertangi toza havo, – deb ta'kidlaydi. Kichik korxona asta-sekin kengayib klasterga aylandi. Bugungi kungacha 5 ta MCHJ tashkil etib, 426 ta ish o'rin yaratdi. Xitoydan 100 ming AQSH dollariga asbob-uskunalar olib kelib, so'nggi 5 yilda 178 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqardi. Ishchilarning 123 nafari xotin-qiz. Aksariyati ehtiyojmand oilalar vakillari, ijtimoiy daftarlarga kiritilgan qatlamdan.

– Dastlab, bu sohada ishlayotgan tashkilotlarga bordim. Ko'plab tadbirkorlar bilan suhbatlashdim, – deydi lavhamiz qahramoni. – Biroq ular bu ish bilan shug'ullanishimga, eplab ketishimga ishonmadi. «Ayol kishi

ekan, qo'lidan kelmaydi, 1-2 oy ishlab, tashlab ketadi», deb o'ylashdi. Lekin men maqsad va ahdimdan qaytmadim. Hozir shaharda ham, tumanda ham hech qanday chiqindi ko'rmaysiz, hammasi yig'ishtirib Bugungi olib ketiladi va bizni zavodimizga boradi.

kunda qayta ishlayotgan narsamiz oddiy shisha. Temir, plastmassa mahsulotlarini qayta ishlaymiz. 7 xil qayta ishlaydigan mahsulotlarimiz bor. Har bir chiqindi katta daromad. Ishchilar bilan bir oiladekmiz, bu axlat tozalovchi degan gap yo'q. Bir dasturxonda o'tirib ovqatlanamiz, ularni eshitaman, dardini tinglayman. Shu vaqtgacha ish va oilam bilan o'ralashib, o'qimagan edim. Ayni paytda oliy ma'lumotli bo'lish istagida Toshkent davlat agrar universitetining Samarqand filialida sirdan o'qiyapman. Tadbirkorlikning nazariy jihatlarini ham o'rganyapman.

2024-yilda tadbirkor Gulmira Jumayeva Narpay va Paxtachi tumanlariga ham xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'ydi. Hozirda «Anvarjon biznes» MCHJ korxonasining 40 ga yaqin yuk mashinalari Kattaqo'rg'on va Narpay tumani mahallalariga xizmat qilayotgan bo'lsa, klasterga qarashli yana bir «Mansurbek qo'rg'on-biznes» MCHJ korxonasi Paxtachi tumanidagi 59 ta mahalla bilan ishlaydi. Bu

ishda unga turmush o'rtog'i, o'g'illaridan tashqari yana 400 ga yaqin ishchi ko'mak beryapti.

Tadbirkor ayol uchun 2025-yil omadli bo'ldi. U «Yil ayoli» milliy tanlovining Respublika bosqichida oliy o'rin Gran-pri sohibasi deb e'lon qilindi. G'olibga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sovg'asi «Onix» avtomashinasi tantanali tarzda topshirildi. Bu esa uning mashaqqatli mehnatlari ortidan kelgan yuksak mukofot.

Xullas, Gulmira Jumayevaning sabri, jasorati boshqalarga ilhom manbayi. U mehnat bilan o'sdi, orzu bilan ulg'aydi, mas'uliyat bilan yuksaldi. Maqsad qat'iy bo'lsa, manzilga yetish mumkinligini hayotida isbotladi.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

► Profilaktik tadbirlar

PAQILDOQLAR – O'YINCHOQ EMAS

Qashqadaryo viloyati Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi xodimlari tomonidan bayram shukuh kechirgan shu kunlarda pirotexnika vositalaridan noqonuniy foydalanish yoki ularni muomalaga kiritishning salbiy oqibatlarini oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar kuchaytirildi.

Mazkur yo'nalishda viloyatdagi aeroport va temiryo'l obyektlarida profilaktik reydlar tashkil etilib, aholi va tadbirkorlar o'rtasida targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Ayniqsa, temiryo'l yoqasida joylashgan mahallalarda targ'ibot ishlari yo'lga qo'yilib, aholiga, xususan, yoshlarga pirotexnika vositalaridan foydalanishning inson salomatligi va jamiyat xavfsizligi uchun keltirishi mumkin bo'lgan og'ir oqibatlari haqida batafsil malumot berilmoqda. Uyma-uy yurilib, turli eslatmalar tarqatilmoqda.

Viloyat Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi Qarshi aeroporti XTB PPX batalyoni xodimlari Nishon tumanida yashovchi fuqaro F.T.ni to'xtatib, ko'zdan kechirilganida uning yonidan «Treniya» nomli pirotexnika vositalari topildi. Mazkur pirotexnika vositalari hujjatlashtirib olinib, huquqbuzarga qilmishining mohiyati tushuntirildi.

Zero ushbu profilaktik tadbirlar aholi xavfsizligini ta'minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Farhod MAHMUDOV,
safdor.

Qashqadaryo viloyati.



**Нодира КАРИМОВА, руководитель
Республиканского социально-информационного
центра «Istiqbolli Avlod»:**

– На протяжении многих лет «Istiqbolli Avlod» осуществляет деятельность в тесном партнерстве с правоохранительными органами и ведущими СМИ республики. В этом конструктивном диалоге особое место занимает газета «Postda-На посту» – издание, которое глубоко вникает в социальные процессы, происходящие в обществе.

Центр сосредоточен на решении задач в сфере защиты прав и свобод человека, противодействия торговле людьми и насилию, предупреждения нелегальной миграции, профилактики правонарушений среди молодежи. Для достижения поставленных целей важна качественная информационная поддержка. Ваше издание – надежная платформа для освещения проектов, реализуемых Центром. Журналисты оперативно откликаются на инициативы. Благодаря сотрудничеству, регулярно публикуются анонсы мероприятий, материалы об их выполнении, экспертные рекомендации по правовой защите граждан. Такое взаимодействие укрепляет связь между гражданским обществом и правоохранительными структурами.



Фотоинформация

ЯРКИЕ КАНИКУЛЫ БЕЗ ТРЕВОГ



В праздничные дни сотрудники ГУВД Ташкентской области и его территориальных подразделений проводят информационно-разъяснительную работу под девизом «Пиротехника – угроза здоровью». Цель – предупреждение несчастных случаев, связанных с использованием пиротехники, особенно

среди детей и подростков. Родители призываются к бдительности и усилению контроля за досугом несовершеннолетних в период каникул.

Важно помнить: безопасность каждого начинается с личной ответственности.

Соб. корр.



Женщина в погонах

МЕЧТЫ, КОТОРЫЕ СБЫВАЮТСЯ

С юности у Дильдоры была мечта посвятить жизнь военной службе. После окончания академического лицея при ТГАИ она выбрала профессию, где нужны дисциплина, упорство и преданность делу.



Служба в органах внутренних дел для лейтенанта Д. Махмудходжаевой началась более 13 лет назад. Одним из важных источников вдохновения для нее являлся отец. Их связь была очень тесной. Его уход в 2006 году стал большим испытанием. Его наставление «Мечтай, действуй – и все сбывается» продолжает направлять ее во всех начинаниях. С особой теплотой она говорит и о маме – доброй, чуткой и очень заботливой. Именно материнская поддержка помогала ей не сломаться в сложные моменты и

сохранить внутреннюю мягкость, несмотря на строгую профессию.

Служебный путь Дильдора начала в Секретариате МВД, а сегодня она старший специалист информационного отдела Центра кибербезопасности Оперативно-розыскного департамента.

– Мне интересно погружаться в каждую задачу, разбираться в нюансах, изучать процессы досконально. Когда понимаешь, как устроена система, работа становится по-настоящему увлекательной, – говорит наша героиня.

На протяжении всей службы Дильдора окружена наставниками, которых характеризует как надежных и ответственных людей. Она подчеркивает, что для женщин в системе МВД стало больше возможностей, открываются новые перспективы для реализации.

Помимо работы, Дильдора активно занимается спортом, любит готовить и собирать мозаики. Дома у нее живет кошка, а на улице она заботится о бездомных животных. «Мне важно быть полезной, помогать тем, кто рядом. Маленькие добрые дела делают жизнь ярче», – говорит она.

Юлия ЧАЙКИНА,
соб. корр.

■ Республика Каракалпакстан

ПАМЯТЬ, ЖИВУЩАЯ В ДОБРЫХ ДЕЛАХ



Жизнь полна непредсказуемых событий... В системе органов внутренних дел сохранение памяти о коллегах, ушедших из жизни, является священным долгом.

Трагическим событием для личного состава стала безвременная кончина начальника организационного подразделения ОВД Шуманайского района майора Полата Косанова. В марте текущего года во время учебных стрельб на полигоне офицеру стало плохо. Несмотря на предпринятые медицинские меры, он скончался от сердечного приступа. В преддверии праздничных дней представители МВД Республики Каракалпакстан навестили его семью, оказав материальную и моральную поддержку.

Как отмечает старший инспектор майор Ансатбай Базарбаев, такая помощь придает семьям уверенность в том, что они всегда под защитой.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.



Yoshlarni zamonaviy kasb-hunarga o'rgatish - DAVR TALABI

Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Globalashuv jarayonlarida esa bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda.

Kasb tanlash – inson hayotidagi muhim tanlovlardan biridir. Mustaqil hayotga qadam qo'yish arafasida turgan yoshlarni kelajakda kim bo'lish, qaysi kasbni tanlash masalalari qiynaydi.

Yoshlarni kasb-hunar tanlashga tayyorlashda har bir o'g'il-qiz shaxsidagi individual xususiyatlarni inobatga olish, ularning iste'dodlari, ma'lum bir hunarga nisbatan bo'lgan layoqat, moyillikka qarab hunarga yo'naltirish jamiyatga foydasi tegadigan mutaxassislar soni ko'payishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugun O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shunday qilib, hozirga kelib respublikamizda mehnatga layoqatli aholi soni 2000-yilga nisbatan 50 foizga oshib, 20 million kishidan ortiqni tashkil etmoqda. Albatta, bu yerda yoshlar salmog'i yuqori.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda ta'lim tizimi oldida ikkita muhim vazifa turibdi. Birinchisi, mehnat bozorining moslashuvchanligini oshirish va mehnatga layoqatli aholiga butun umri davomida ta'lim olish imkoniyatini yaratish, ikkinchisi, yoshlarning jamiyatda munosib o'rin egallashi uchun zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirish zarur.

Mamlakatimizda yoshlarimizga ta'lim-tarbiya berish, ularning har tomonlama barkamol bo'lib ulg'ayishlari hamda kasb-hunarga yo'naltirish masalasi dolzarb vazifasiga aylandi. Maktab o'quvchisi kasb-hunar tanlash bilan yaqin kelajak, kerak bo'lsa, bir umrga o'z hayot tarzi darajasini, mazmunini va ijtimoiy mavqeini belgilaydi. Bundan ko'rinadiki, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish muammosi nafaqat jamiyat, balki har

bir shaxs uchun o'ta dolzarb va hayotiy ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz O'qituvchi va murabbiylar kuni arafasida soha xodimlari bilan muloqotda **«BIZ YOSHLARIMIZNI NAFAQAT ZAMON BILAN HAMNAFAS, BALKI KELAJAKKA TAYYOR QILIB TARBIALASHIMIZ KERAK»** deya ta'kidladi.

O'zbekiston iqtisodiyotiga yiliga 30–35 milliard dollar investitsiya, yangi yo'nalishlar, zamonaviy texnologiyalar kirib kelyapti, minglab korxonalar ishga tushyapti. Shuning o'zidan yiliga **250–300 MING ATROFIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARI PAYDO BO'LYAPTI.** Davlati-

kasbiy ko'nikmasi bor istalgan talabgor ushbu texnikumlarda xorijiy davlatlarning malakani baholash tizimi orqali imtihondan o'tib, xalqaro sertifikat olishi mumkin bo'ladi.

2025-o'quv yilidan Angliyaning «Pirson» kompaniyasi bilan hududlardagi 14 ta texnikumda «BITEK» xalqaro dasturi boshlandi. Bu orqali yoshlar xalqaro standartlar asosida turizm, axborot texnologiyalari, tibbiyot, qurilish, logistika, elektrotexnika, energetika, mashinasozlik, biotexnologiya, kreativ iqtisodiyot kabi yo'nalishlarda kasblarni egallaydi. **KELASI YILI SANOATDA QARIYB 45 MIL-**

2025-yilda oliy o'quv yurtlariga o'qishga kira olmagan 11-sinf bitiruvchilarining 200 mingga yaqini qisqa muddatli kasb-hunar kurslarida o'qitiladi.

«YANGI TASHABBUSLARIMIZDAN MAQSAD NIMA? HAR BIR FARZANDIMIZNI KASB-HUNARLI VA DAROMADLI QILSAK, HAR BIR OILADA TO'KINLIK, MAHALLALARDA ESA TINCHLIK BO'LADI», dedi davlatimiz rahbari.

Bugun odamlarni ish bilan ta'minlash, biror faoliyat turiga jalb etishning eng samarali yo'li ularni kasb-hunarga o'qitish ekani mamlakatimiz tajribasida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning bilim olishi, mehnat qilishi, o'z qobiliyat va iste'dodini ro'yobga chiqarishi uchun qulay sharoit yaratish davlatimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Qisqa davrda ushbu yo'nalishda 100 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingani, ularning ijrosiga mas'uliyat bilan yondashilayotgani buni yaqqol tasdiqlaydi.

Bugungi yoshlar ko'p jihatdan jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda, yoshlarni munosib kasbga yo'naltirish, ishga joylashtirish orqali jinoyatchilikning barvaqt oldini olish muhim vazifa hisoblanadi.


Bu yangi hayot ostonasiga qadam qo'yayotgan yoshlarning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarish barobarida, o'ziga va hayotga bo'lgan ishonchining ortishida, qolaversa, yurtimiz ravnaqi, taraqqiyoti uchun munosib hissa qo'sha oladigan avlodlar bo'lib tarbiyalanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mehnatkash yoshlar to'g'ri fikr, ilg'or dunyoqarashi bilan mamlakatni faol rivojlantiruvchi drayverga aylanadi. Maqsadimiz – Yangi O'zbekiston farzandlarining hayot bilan hamnafas, shijoatli, bilimga chanqoq, halol va hayotga teran nigoh bilan boqa oladigan insonlar bo'lib tarbiya topishiga erishishdir.

G'ayratulla SHUKUROV,
O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan madaniyat
xodimi.



Qoraqalpog
tilidagi matn.



Rus tilidagi
matn.



LIARD DOLLARLIK 456 TA YIRIK LOYIHA BOSHLANADI.

«Investor – tarmoq – texnikum» zanjiri asosida texnikumlarda dual ta'lim yo'lga qo'yiladi.

Hamkor korxonalarni rag'batlantirish maqsadida ularga 5 milliard so'mgacha imtiyozli kredit ajratilib, dual ta'lim orqali ishlayotgan o'quvchilar bo'yicha yagona ijtimoiy to'lov ikki ba-

robar qisqartiriladi. Shu bois, texnikumlardagi xorijiy tillar uchun ajratilgan soatlar 4 karra ko'paytiriladi.

2026-yildan boshlab raqamli platforma ishga tushadi, bunda O'zbekistondagi va xorijdagi ish beruvchilar bitiruvchilarning kasbiy ko'nikmalari haqidagi barcha ma'lumotlarni ko'rishlari mumkin bo'ladi. Shuningdek, Prezidentning yangi qaroriga ko'ra, maktablarda maslahatchi lavozimi joriy etilib, u 7-sinf boshlab o'quvchilarning o'zlashtirishi va qiziqishlarini kuzatib boradi hamda ularni texnikumlarga yo'naltiradi. Bunda 9-sinf bitiruvchilarining maktabga qaytish imkoniyati saqlanib qoladi.



KATTA SERJANTNING QALBI

Toshkent shahar IIBB YHXB YPX brigadasi maxsus batalyoni inspektori, katta serjant Farhod Egamberdiyevning faoliyatiga nazar tashlarkansiz, ko'z oldingizda nafaqat tartib-intizomga bo'ysunadigan osoyishtalik posboni, balki yuksak insoniy fazilatlar sohibi g'aydalanadi.

2008-yildan buyon ichki ishlar organlarida xizmat qilib kelayotgan lavhamiz qahramonining faoliyati 2018-yildan bevosita yo'llar, harakat xavfsizligi va minglab insonlar taqdiri bilan bog'landi. Uning uchun YPX xodimi bo'lish shunchaki qoidabuzarni jazolash emas, balki yo'l harakati ishtirokchilariga to'g'ri yo'l ko'rsatish, sodir etilishi mumkin bo'lgan turli ko'ngilsizliklarning oldini olish demakdir.

– Xodim yo'l harakati ishtirokchisi bilan muvoqotga kirishganda, avvalo, yuzida tabassum va qalbida hurmat bo'lishi kerak, – deydi katta serjant. – Chunki egnida ichki ishlar organlari libosi bo'lgan har bir xodimning xatti-harakati orqali butun bir tizimga baho beriladi.

Osoyishtalik posboni, ayniqsa ayollar va keksa yoshdagi haydovchilarga nisbatan alohida ehtirom bilan yondashadi. Agar sodir etilgan qoidabuzarlik o'ta qo'pol bo'lmasa, tushuntirish ishlarini olib borib, ularga oq yo'l tilaydi. Zero, maqsad jarima solish emas, balki madaniyatli haydovchini tarbiyalash.

Ko'pchilik ichki ishlar organlari xodimlarini qat'iyatli va talabchan qiyofada ko'rishga o'r-

ganib qolgan. Biroq F. Egamberdiyevning faoliyatidagi bir voqea forma ortida, eng avvalo, qalbi daryo inson turganini isbotlaydi. Bir necha yil oldin poytaxtimizning Beruniy ko'chasidagi xizmat vaqtida tug'uruqxonaga shoshayotgan oilaga duch kelgan inspektor, vaziyatni qalbdan his qildi. Maxsus chiroqlar yoqilgan holda, xizmat avtomashinasi kuzatuvida, soniyalar bilan hisoblashib manzilga yetib borilganida, og'ir damda kamarbasta bo'lgan xodimga nisbatan aytilgan «Agar o'g'il tug'ilsa, ismini Farhod deb qo'yamiz» degan so'zlar bu tizimga bo'lgan ishonchning eng oliy ko'rinishi edi.

Bunday holatlar qahramonimiz ish faoliyatida ko'p uchraydi. Yo'lda avtomobilning g'ildiragi teshilgan haydovchiga yordam berishmi yoki avtomashinasi buzilib qolgan ayolga yordam berib, ustaxonagacha kuzatib qo'yishmi – bularning barchasi inspektor uchun kundalik vazifa emas, balki vijdon amriga aylangan.



Biz bayramlarni oilamiz davrasida, issiqqina uyimizda nishonlayotgan vaqtimizda, Farhod Egamberdiyev kabi minglab soha fidoyilari ko'chada, izg'irin sovuq yoki jazirama issiqda xizmat burchini o'tayotgan bo'lishadi. Ular uchun bayram – elning tinchligi, yo'llarning bexatarligidir. Katta serjant Farhod Egamberdiyevning siymosida biz o'z kasbiga mehr qo'ygan, xalq duosini olishni oliy baxt deb bilgan haqiqiy Vatan posbonini ko'ramiz.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

Kinologiya

G'ARAM OSTIDAGI BUYUMLAR



Sirdaryo viloyati IIB JXX JTSB Kinologiya bo'limida yigirmaga yaqin zotli itlar bor. Bu itlar giyohvandlik moddalarini topish, portlovchi moddalarni aniqlash, jinoyatchi izini qidirish va tutishga o'rgatiladi. Shu bilan birga, sog'lom, baquvvat bo'lishi uchun ularga g'amxo'rlik qilinadi.

– Itlar kuchli va sog'lom bo'lib o'sishi uchun ularga vitamin va mikroelementlarga boy ozuqa beriladi, – deydi veterinar, leytenant Shuhrat Ergashev. – Turli kasalliklarga qarshi emlanadi. Har bir kuchukka jismoniy mashqlar bo'yicha alohida tartib ishlab chiqiladi. Albatta, bunday ilmiy yondashuv xizmat itlarining doim xizmatga shayligini ta'minlashda, jinoyat qidiruv faoliyati samaradorligida muhim ahamiyatga ega.

Kichik inspektor-kinolog, safdor Hasan Xoljigitov bir necha yillardan beri ushbu sohaviy xizmatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan xodimlardan biri. U o'ziga biriktirilgan nemis ovcharkasi yordamida o'nlab jinoyatlarning ochilishiga katta hissa qo'shgan.

– Itlar mehrga tashna bo'ladi, – deydi Hasan Xoljigitov. – Yaxshi munosabatda bo'lsangiz, g'amxo'rlik qilsangiz, ular sizning sodiq do'stingizga aylanadi. Berilgan topshiriqni a'lo darajada bajaradi.

Yaqinda tungi navbatchilik paytida Guliston shahridagi do'konlardan birida o'g'rilik sodir bo'lgani to'g'risida xabar kelib tushdi. Voqea joyiga yo'l olgan tezkor guruh tarkibidagi safdor Hasan Xoljigitov o'ziga

tegishli xizmat iti bilan iz olishga tushdi.

Ma'lum bo'lishicha, o'g'ri do'konning tom qismini buzib ichkariga kirgan. Pul va qimmatbaho buyumlarni olgan va eshikni buzib, chiqib ketgan. It dastlab iz olishga qiynaldi, keyin esa do'kondan uncha uzoq bo'lmagan mahalla ko'chasi bo'ylab yugurdi. Hovlilardan biridagi somon g'arami oldiga borib, hura boshladi. Uydan ellik yoshlardagi xonadon egasi chiqdi. Xodimlar guvohlar oldida pichan g'aramini tekshirishdi. Uning ostidan do'kondan o'g'irlangan qimmatbaho idish-tovoqlar chiqdi...

Viloyat ichki ishlar organlari kinologiya xizmati xodimlari tomonidan ularning beminnat ko'makchilari yordamida ochilgan bu kabi jinoyatlarga yana ko'plab misollar keltirish mumkin. Ammo ular sharaflari xizmati orqali erishayotgan yutuqlarini hamma vaqt ham oshkor qilishavermaydi. Bu sohaviy xizmatda yuksak insoniy xislatlarga ega insonlar – kasbiga sodiq, fidoyi xodimlar faoliyat yuritayotganining dalolatidir.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

► Zoʻravonlikka qarshimiz

«ENDI
MEN
OLDINGI
TAMARA
EMASMAN!»

Mamlakatimizda tazyiq va zoʻravonlikdan jabr koʻrgan ayollarning taqdiriga befarq qaralmayapti. Viloyatimizda jabrlanuvchi ayollar uchun vaqtinchalik panoh uylari tashkil etilib, ularga huquqiy, psixologik va ijtimoiy yordam koʻrsatilmoqda. Bir soʻz bilan aytganda, ular himoyasiz yoki chorasiz emas.

– Joriy yilning oʻtgan davrida 3798 nafar xotin-qiz tazyiq va zoʻravonlikdan jabrlangan edi. Ularning 3776 nafariga himoya orderi berildi. 1962 ta oila yarashtirildi, 1814 ta nizo bartaraf etildi. Kasb-hunarga oʻqitilib, tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilmoqda. Qoʻrquv bilan kun kechirgan ayollarga dalda va taskin berilib, «Sen yolgʻiz emassan, sen davlat himoyasidasan!», deb ularga haq-huquqlari tushuntirilmoqda, – deydi viloyat IIB JXX HPB boshligʻi oʻrinbosari, podpolkovnik Nigora Yodgorova.

Darhaqiqat viloyatda «Zoʻravonlikka qarshi 16 kun» profilaktik tadbirlari doirasida qator maʼnaviy-maʼrifiy, huquqiy uchrashuvlar oʻtkazildi. Ularda tazyiq va zoʻravonlikka duch kelgan har bir ayolga yordam qoʻlini choʻzish, qoʻllab-quvvatlash, yana hayotga qaytishlariga imkoniyat yaratish ustuvor vazifa ekanligi taʼkidlandi. Ayollar endi oʻzlarini yakka emas, himoyalangan, va qadrlangan his qilmoqda. Ular jamiyatda munosib oʻrin egallashga, kuchli va mustaqil shaxs sifatida yashashga ishona boshladilar.

Shunday ayollardan biri Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish viloyat hududiy markazidan panoh topgan nurobodlik Tamara Ochilova (ism-sharifi oʻzgartirildi) shunday deydi. – «Bu yerda insonni tinglaydigan, dardini eshitadigan va toʻgʻri yoʻl-yoʻriq koʻrsatadigan kishilar bor ekan. Ular koʻmagida men turmush oʻrtogʻim oʻtkazgan tazyiqlarni, bergan azob-uqubatlarni unutdim. Bu yerda sataroshlik va pazandalik kurslarida hunar oʻrganib, hayotga qarashim oʻzgardi. Hali hammasi

yaxshi boʻlishiga ishonch, va bu yaxshilikka erishish uchun intilish paydo boʻldi. Maqsadlarimni aniq belgilab oldim. Endi men, oldingi Tamara emasman.

Kasb-hunar oʻrganayotgan, ishga joylashgan, oʻz mustaqil hayotini qayta qurib borayotgan Tamara singari ayollar misolida aytish mumkinki, zoʻravonlik ularning taqdirini sinovdan oʻtkazsa-da, kuchli va matonatli boʻlishlariga toʻsqinlik qila olmagan. Eng muhimi ular endi oʻz taqdiri ustidan hukm chiqaradigan, oʻz hayotini boshqaradigan, oʻz baxtini quradigan insonga aylanmoqda.

– Zoʻravonlikka qarshi kurashish faqat muammoni bartaraf etish emas, balki uning sabablarini oʻrganish, bunday holatlar roʻy bermasligining oldini olishdan iborat. Maqsad hayotda biron ayol oʻzini yolgʻiz yoki himoyasiz his qilmasligi kerak. Bu borada psixologlar maslahati, huquqshunoslar koʻmagi, koʻrsatilayotgan ijtimoiy yordamlar ayollarning hayotga qiziqishini oshirayapti, oʻz mustaqil hayot yoʻlini belgilab olishiga koʻmaklayashyapti, – deydi biz bilan suhbatda Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish viloyat hududiy markazi huquqshunosi Munavvar Ahmanova.

Binobarin, zoʻravonlikka qarshi kurashish faqat qonun talabi ijrosini taʼminlash emas, balki adolatni yuzaga chiqarish, insonparvarlik tamoyilini hayotga tatbiq etib, mehr va muruvatni yuzaga chiqarishdir.

Umida MAMADALIYEVA,
oʻz muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

► Mulohaza

Bugun ayrim ijtimoiy tarmoqlarda «muhabbat sahna»lari urchib ketdi. Sahna koʻrinishlarida er-xotin hashamatli restoranda romantik kayfiyatda oʻtirishgan boʻladi. Erkak ayoliga guldun poyondoz qilib qimmatbaho sovgʻalar hadya qiladi. Xotini unga nazokat bilan choy uzatadi. Xullas, ideal juftlik.

BAXT KOʻNGILDA
BOʻLADI

Bunday ertakmonand manzarani koʻrgan boshqa ayollar ham turmush oʻrtogʻidan ana shunday munosabatni kutadi va «Falonchilar har hafta restoranda maza qilib ovqatlanisharkan», «Falonchi xotiniga mashina olib beribdi», «Siz ham ulardan oʻrnak

niga tez-tez borib, ruhiy va jismoniy tazyiq oʻtkazadi. Majburiy ijro byurosi xodimlari mazkur uyda yashash huquqi boʻlmagan bu fuqaroni xonadondan chiqarib yuborish uchun borganida, janjalning ustidan chiqishadi. Erkak yuk mashinasida xotini



oling», – deb umr yoʻldoshini holi-joniga qoʻymaydi.

Kimdir oilaviy turmushidan romantika qidiradi, kimdir boylik orttirish ilinjida. Yana kimdir esa ishsizlikdan qiyonaladi, ustma-ust olgan kreditlarini toʻlash tashvishi-da, bolalarining taʼminotini, uy-joy muammosini oʻylaydi. Natijada internetdagi ideallik bilan uydagi reallik toʻqnashadi. Oilaviy ajrimlarga ota-onalik masʼuliyatining yoʻqligi, oʻzaro tushunmovchiliklar, iqtisodiy yetishmovchilik, ishsizlik, migratsiya va shu kabilar sabab boʻliyapti.

Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan Navoiy viloyatining Tomdi tumanida sodir etilgan qotillik haqidagi xabar va lavhalar koʻplab muhokamalarga sabab boʻldi. Eri bilan ajrashgandan soʻng, ayol 3 nafar farzandi bilan boshqa uyda yashagan. Ammo erkak ajrimdan soʻng ham xotini va bolalarini oʻz holiga qoʻymaydi. Ular yo-

va uning ota-onasini bosib ketib, uch insonning hayotiga zomin boʻladi. Jinoyatga jazo muqarrar. Erkak qilmishi uchun sud tomonidan umrbod ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilindi. Oqibatda 3 nafar bolakay yetim boʻlib qolishdi.

Endi mulohaza qilib koʻring. Qadimda buvilarimiz «Uydagi gapni koʻchaga olib chiqma», deb bejiz aytishmagan. Xoh baxtli kechangiz boʻlsin, xoh xafa kuningiz – u faqat sizga tegishli. Oilaviy munosabat samimiy his-tuygʻular bilan yoqimliroqmi yoki ijtimoiy tarmoqdagi obunachilaringizning koʻzi uchun olingan sovgʻa-salomlar, aytilgan soxta maqtovlar bilanmi?

Har kim baxtni oʻzicha kashf etadi. Muhimi koʻngillar yaqinligi. Oila-turmush, bola-chaqa tashvishlarining borligi ham baxt.

Mahliyo XOLOVA,
oʻz muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

SAFAR RAIS

Uni ko'pchilik «Safar rais» deb chaqiradi. Bunday e'tirof ko'p yillar o'zi tug'ilib o'sgan «Nurobod» mahalla fuqarolar yig'inini boshqargani uchungina emas, shu yillarda katta o'zgarishlar sodir bo'lgani sababidan ham. Iste'fodagi katta serjant Safar Elmurodov ana shunday obodlikka, bunyodkorlikka bosh qo'shib yashaydigan inson.

Safar Elmurodovning katta akasi Xovos tumani IIB Qo'riqlash bo'limida faoliyat ko'rsatardi. U aynan shu akasining izidan ketdi. 1996-yili Yangiye tumani IIB Qo'riqlash bo'limida xizmat faoliyatini boshladi. O'sha yillarda mamlakat bo'ylab xususiylashtirish, kichik va o'rta biznesga o'tish davri boshlangan, mol-mulkni talon-toraj qilish avj olgan, ba'zan butun boshli texnikalarni o'marish holatlari uchrab turardi. Ser-

jant Safar Elmurodov o'ziga topshirilgan obyektlarni qo'riqlashda doim hushyor, kasbiga sodiqlik bilan yondashardi.

Oradan uch yil o'tib Xovos tumani IIB Qo'riqlash bo'limida xizmatni davom ettirgan lavhamiz qahramonining fidoyiligi evaziga ko'plab o'g'rilik holatlarining oldi olindi. Ayniqsa, tugatilgan davlat xo'jaliklari, avtoparklarni qo'riqlashda uning xizmati beqiyos bo'ldi.

Keyinchalik rahbariyat Safar Elmurodovni hozirgi Yangiobod tumanidagi Tojikiston chegarasidagi postga qo'ydi. Serjant o'ziga topshirilgan vazifani uddalab, tonnalab mahsulotlar chetga chiqib ketishiga yo'l qo'ymadi.

– Safar o'ta mas'uliyatli xodim edi, – deydi uning ustoz, iste'fodagi podpolkovnik Ilhom Egamov. – U hech qachon o'ziga topshirilgan vazifani bajarishda xatoga yo'l qo'ymagan.

Ichki ishlar organlarida qariyb yigirma yilga yaqin faoliyat ko'rsatgach, 2015-yilda Safar Elmurodov pensiyaga chiqdi. Shundan keyin uni mahalla fuqarolar yig'ini raisi etib saylashdi.



2017-yildan boshlab mamlakatda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Hududlarni jadal rivojlantirishga kirishildi. Shu jumladan, «Nurobod» ham qurilish maydoniga aylandi. Mahalla ko'chalarining sakson foizi asfaltlandi. Mahalla ichkarisidagi borish qiyin bo'lgan joylarda yangi

ko'chalar tushirildi. Yo'laklar qurildi. Eski ariqlar o'rniga lotoklar yotqizildi. Zamonaviy yoritish lampalari o'rnatildi. Shu yili mahallaga ichimlik suvi kirib keldi. Uzib tashlangan gaz tarmog'i qaytadan ulandi. Bu ishlarning boshida Safar rais bosh-qosh bo'lib turdi. Mahalladoshlarning kuchini jamladi, boshini qovushtirdi.

2023-yili u to'liq nafaqaga chiqib, bog'-rog' barpo etish ishini boshladi. Shu kunlarda esa mahallada kichik tikuv sexini ochib, bir qancha ayollarni ish bilan ta'minlash harakatida. Mana shuning o'zi ham uning el koriga doim kamarbasta insonligining dalolatidir.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV, o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

FOJIANING OLDI OLINDI

Yaqinda poytaxtimizning Chilonzor tumani 17-dahasidagi ko'p qavatli uylardan birida fojia yuz berishiga bir bahya qoldi. Ichkilik ta'sirida qilingan mas'uliyatsiz xatti-harakat oqibatida yong'in chiqishi xavfi yuzaga keldi. Fuqarolarning hushyorligi va xodimlarning tezkorligi tufayli ko'ngilsiz hodisaning oldi olindi.



– Kechasi taxminan soat o'n ikkilar edi, – deydi mahalla faoli Qunduz Amilova. – Ikkinchi qavatda yashaydigan qo'shnim qo'ng'iroq qilib, birinchi qavatda yolg'iz istiqomat qiluvchi kishining uyidan tutun chiqayotganini, biroq eshik ochilmayotganini aytdi. Darhol pastga tush-

dik, qo'shnilarni uyg'otdik va «102» raqamiga xabar berdik.

Ma'lum bo'lishicha, ushbu xonadonda yashovchi 52 yoshli fuqaro Safid Ibragimov ichkilikni me'yoridan ortiq iste'mol qilgan holda sigaret chekib, mast holatda uxlab qolgan. Natijada, sigareta qoldig'i yotoqxo-

nadagi to'shakka tushib, u tutay boshlagan.

– Ushbu fuqaro avval ham ichkilikka ruju qo'ygani uchun bir necha bor ma'muriy javobgarlikka tortilgan, – deydi mahalla profilaktika inspektori, podpolkovnik Samandar Jo'rayev. – Voqea kuni ham spirtli ichimlik iste'mol qilgan. Sigaret chekayotib uxlab

qolishi oqibatida to'shagiga cho'g' tushgan. Yaxshiyam, buni qo'shnilar o'z vaqtida sezib qolishgan.

Qo'shnilarning tezkor murojaati asosida Toshkent shahar IIBning «102» tizimi orqali xabar Chilonzor tumani IIOFMB JTSB PPX 1-otryad komandiri o'rinbosari, kapitan Oybek Salayevga yetkazilgan.

– O'sha kuni mazkur hududda tungi xizmatni olib borayotgan edim, – deydi kapitan O. Salayev. – Xabar berilgan manzildan uncha uzoqda emasdim. Ma'lumot kelib tushishi bilan darhol ko'rsatilgan xonadonga yetib bordim. Biroq uyning temir eshigini ochib bo'lmas, deraza orqali kirish ham imkonsiz – u qalin temir panjara bilan to'silgan edi.

Ichkariga ko'z tashlaganimda, tutun ichida qolgan bir erkak arang boshini ko'tarib, yordam so'rayotganini ko'rdim. Har lahza g'animat, agar o'z vaqtida yordam ko'rsatilmasa, oqi-

bati og'ir bo'lishi mumkin edi...

Zudlik bilan qo'shimcha kuchlar chaqirildi. Ichki ishlar organlari va Favqulodda vaziyatlar xizmati xodimlari tez orada yetib kelishdi. Temir eshik buzib ochildi. Xonadon ichi qop-qora tutun bilan to'lgan bo'lib, fuqaroni ko'rish qiyin edi. Xodimlar paypaslab harakat qilib, ingrayotgan fuqaroni topib, tashqariga olib chiqishdi. Shuningdek, tutayotgan ko'rpa-to'shaklar ham zudlik bilan tashqariga chiqarib, xavf bartaraf etildi.

Qisqa vaqt ichida fuqaro qutqarib olinib, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markaziga yetkazildi. Ayni paytda uning ahvoli qoniqarli. Mazkur voqea ichkilikbozlikning qay darajada xavfli ekanini yana bir bor yaqqol namoyon etdi. Ushbu illat tufayli butun bir xonadon, qolaversa, ko'plab insonlar hayotiga jiddiy xavf tug'ilishi mumkin edi. Yuqoridagi holatdan har kim o'zi uchun to'g'ri xulosa chiqarib olsa, ajabmas...

Adolat FAYZIYEVA, o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



Havo bizga berilgan mulk emas

Bugun avtomobillarsiz hayotimizni tasavvur etib bo'lmaydi. Uzoq'imizni yaqin, mushkulimizni oson qiluvchi bu vositalar vaqtimizni tejash bilan bir qatorda, mehnatimiz samarasini ham ta'minlaydi. Biroq ularning-da salbiy jihatlari borki, bu inson ta'siri orqali namoyon bo'lmoqda. Gap tutun haqida!

Mutaxassislarning ma'lum qilishicha, bitta avtomobil bir kunda o'nlab kilogramm zararli karbonat angidrid (CO_2) moddasini ajratadi. Ya'ni, shuncha miqdorda uglerod dioksidini tarqatadi. Buning natijasida havo sifati yomonlashadi. CO_2 ning eng katta xavfi bu iqlim o'zgarishiga qo'shadigan hissasidir. U atmosferada issiqxona effektini kuchaytirib, yer haroratining oshishiga sabab bo'ladi. Natijada iqlimning keskin isishi yoki sovishi, quruqchilik, suv tanqisligi, o'rmon yong'inlari, suv toshqinlari, qishloq xo'jaligida esa hosildorlikning pasayishi ro'y beradi. Bularning barchasi bizning avtomobil pedalini noo'rin bosishimiz tufayli yuz beradi, desam, ishonasizmi? To'g'ri, bitta transport vositasining ta'siri qancha ham bo'lishi mumkin, dersiz. Lekin atrofimizda minglab avtomobillar harakatlanayotganini inobatga olsak, naq ko'rinmas tahdid zavodi mavjudligiga amin bo'lamiz.

– Avtomobildan ajraladigan ko'mir va azot oksidlari, uglevodorodlar, mayda zarrachalar inson organizmiga juda tez yopishib oladi, – deydi Andijon viloyati IIB Tibbiyot bo'limi SENM bakteriolog shifokori Abdumanob Zulfiqorov. – Bosh og'rishi, nafas qisishi, allergiya, uyqusizlik, qon bosimining beqarorligi – bularning barchasi tashqi omillar emas, balki ko'chadagi havoning ifloslanishi bilan bog'liq holatlardir. Jarayonning eng xavfli tomoni shundaki, inson

bu ta'sirni darhol his qilmaydi. Ertaga, bir oydan keyin yoki bir necha yildan keyin paydo bo'ladigan kasalliklar aslida bugun nafas olib turgan havodan boshlangan bo'ladi.

Mashinani «yurib tursa bo'ldi» tamoyili bilan boshqarish, yonilg'ini tejash maqsadida sifati past benzindan foydalanish, filtrlarni o'z vaqtida almashtirmaslik, tirbandlikda gazni bekorga bosaverish – bularning har biri havo ifloslanishiga qo'shimcha hissa qo'shadi. Aslida esa muammolarning ko'p qismi texnik jihatdan emas, balki ongli munosabatdan boshlanadi. Andijon viloyatida ham transport vositalarining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish, ekologik nazoratni kuchaytirish maqsadida bir qator amaliy ishlar boshlab yuborildi. Xususan, viloyat IIB JXX YHXBda mavzuga aloqador boshqa idoralar bilan hamkorlikda maxsus ishchi guruh tuzilib, yo'l harakatida ishtirok etayotgan avtomobillardan chiqayotgan gazlar me'yori doimiy tekshirilmoqda. Ushbu nazoratning asosiy maqsadi haydovchini jazolash emas, balki uni ogohlantirish, to'g'ri texnik xizmat va ekologik madaniyatga chaqirishdan iborat.

– Reydlarning eng katta samarasi haydovchilar ongidagi o'zgarishning yuzaga kelayotganidadir, – deydi viloyat IIB

JXX YHXB Texnika nazorati bo'limi katta inspektori, katta leytenant Rafuqjon Mo'minov. – Shu kungacha 371 ta

avtomobilni nazoratdan o'tkazgan bo'lsak, shundan 92 tasida gaz chiqarish me'yoridan oshgani aniqlandi. Mazkur holat bo'yicha belgilangan choralar ko'-

yo'l qo'yayotgan ekanman, – deydi Andijon shahridagi «33» yo'nalishda aholiga transport xizmati ko'rsatuvchi Sanjarbek Karimov. – Hatto pedalni noto'g'ri yoki noo'rin bosish orqali ham havoga zararli moddalarni tarqatish mumkin emas. Reyd davomida ichki ishlar organlari xodimlari bu haqda ma'lumot berishgach, mavzuga jiddiy yondashish kerakligini tushundim.

– Avtomobillardan chiqayotgan gazlarning katta qismi texnik xizmat ko'rsatishga yetarlicha e'tibor berilmaganligi natijasidir, – deydi viloyat Ekologiya va iqlim o'zgarishi bosh boshqarmasi xodimi Lochinbek Iso-muddinov. – Buni kamaytirish uchun esa mashinani vaqtida sozlash, filtrlarni almashtirish, haydash uslubini barqarorlashtirish, sifatli yonilg'ini tanlash



rildi. Biroq bizning maqsadimiz jarima tayinlash emas, balki har bir haydovchini «avtomobilim faqat menga tegishli» degan qarashdan chiqarish. Chunki gaz hammamizga taalluqli bo'lgan havoga tarqalmoqda. Shu bois shaxsiy mas'uliyat hissini oshirishga e'tibor qaratmoqdamiz.

Reydlar davomida haydovchilar bilan profilaktik suhbatlar ham o'tkazilmoqda. Ko'pchilik haydovchilar texnik ko'rikdan o'tganini asos qilib, mashinaning sozligi haqida o'ylamaydi. Aslida esa yuzaga kelgan no-sozliklar, filtrlarning ifloslanishi yoki yonilg'i sifati shunday «ko'rinmas xatarlar»ni keltirib chiqaradi.

– To'g'risini aytsam, shu paytgacha mashina boshqarishda katta xatoga

zarur bo'ladi. Shahar miqyosida ham bir qator vazifalar bor. Svetoforlarni aqlli boshqaruvga o'tkazish, aylanma yo'llar barpo etish, tirbandlikni kamaytirish, jamoat transportini qulay qilish – bularning barchasi umumiy ekologik ta'sirni kamaytiruvchi muhim yo'nalishlardir.

Xulosa shundan iboratki, havo bizga berilgan mulk emas, balki bizning mas'uliyatimizni sinab turuvchi ne'matdir. Zero, unga qanchalik ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lsak, tabiat ham, o'zimiz ham sog'lom bo'lamiz.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.



O'rtachirchiq tumani IIB JXX Probatsiya guruhi nazoratida bo'lgan 175 nafar shaxs joriy yilning 11 oyi davomida hisobdan chiqarilgan. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar bilan 24 marotaba profilaktik suhbatlar olib borilib, ularning ijtimoiy-maishiy muammolarini aniqlash va bartaraf qilish, sog'lig'ini tiklash, kasbga yo'naltirish, ishga joylashishiga ko'maklashish, ijtimoiy daftarlarga kiritilganlarning bandligini ta'minlash ishlari amalga oshirilgan.

Ishonchsizlikka O'RIN YO'Q



– Bilib-bilmay jinoyatga qo'l urib, jazo muddatini o'tab chiqqan shaxslarda ozodlikka chiqqanidan so'ng ishonchsizlik, yakkalanish hissi paydo bo'lishi mumkin. Bu ularning jinoyat ko'chasiga qayta kirish ehtimolini yuzaga keltiradi. Shu sababli ham probatsiya nazorati ostidagi shaxslarning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish, ular qayta jinoyatga qo'l urishining oldini olish va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadga muvofiqdir, – deydi Probatsiya guruhi katta inspektori, mayor Rasul Abdullayev.

Hozirgi kunda tumanda probatsiya hisobida turadiganlarning umumiy soni 437 nafarni tashkil etadi. Nazorat ostidagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirish bo'yicha yakunlanayotgan yilda 11 marta mehnat yarmakalari o'tkazilib, 53 nafar shaxsning bandligi ta'minlanishiga erishildi.

Bundan tashqari, sudlar bilan hamkorlikda 10 marta sayyor sud tashkil etilib, yuklatilgan majburiyatlarni o'z vaqtida bajarib, mehnatga halol munosabatda bo'lgan fuqarolar muddatidan oldin shartli ravishda ozod etildi. Jazodan qasddan bo'yin tovlab yurgan 38 nafar shaxsning o'talmay qolgan muddati esa og'irroq jazo turiga almashtirildi.

Tumanda probatsiya hisobida turgan shaxslar bilan doimiy muloqotlar olib borilib, ularni qiynayotgan masalalarga yechimlar izlanmoqda. Takror jinoyatlar sodir etilishining oldini olish maqsadida muqaddam jinoyatga qo'l urgan shaxslar bilan muntazam profilaktik tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Abror POYONOV,
o'z muxbirimiz.
Toshkent viloyati.

Bolalar kelajagimiz

MEHR MASKANI

Joriy yilda markazimizga Toshkent viloyati hududida nazoratsiz va qarovsiz qolgan 1800 nafardan ortiq voyaga yetmagan bola joylashtirildi. Ularning har biri — o'z taqdiri va bolalikka xos orzulari bilan alohida bir olam.

Kimdir bolalik sho'xligi yoki xayoliy orzulari sabab ota-onasi bilan kelisholmay uyidan chiqib ketgan bo'lsa, yana biri taqdir zarbalari tufayli erta ota-onasidan ayrilgan, o'gay ota yoki o'gay onaning ozorlariga dosh berolmagan. Ayrim bolalar esa o'zini katta ekanini isbotlash maqsadida ishlash uchun Toshkent shahriga kelgan. Ularning har biri bilan suhbatlashish, dalda bo'lish, ota-onalarini xabardor qilish, zarur hollarda esa huquqlarini himoya qilish Toshkent viloyati IIBB JXX HPB Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi xodimlari uchun odatiy vazifaga aylangan.

Ba'zan ijtimoiy og'ir ahvoldagi bolalarga boshqa oilaga joylashish taklifi berilganda, ularning ikkilanmasdan «xo'p» deb javob berishi qalbimizda og'ir savollarni uyg'otadi: nega bola o'z ota-onasidan kechishga tayyor?

Markazga kelgan voyaga yetmaganlarning avvalo shaxsi, yashash manzili, ota-onasi hamda poytaxtga kelish sabablari aniqlanadi. Ayrim bolalar darhol ochiq muloqotga kirishsa, boshqalari ma'lum vaqt o'tgach ishonch bildirishadi. Ularning qalbiga yo'l topish, ishonchli inson sifatida muammolarini tinglash har bir xodimdan alohida mahorat talab etadi.

Bolalarning ta'limdan uzilib qolmasliklari maqsadida Toshkent shahri Yunusobod tumani xalq ta'limi bo'limi bilan hamkorlikda imzolangan qarorga muvofiq dars jarayon-

lari tashkil etilgan. Shuningdek, ularni kasb-hunarga o'rgatish yo'nalishida Yunusobod tumani «Barkamol avlod» markazi bilan hamkorlikda qizlar uchun tikish-bichish, o'g'il bolalar uchun esa duradgorlik to'garaklari tashkil etilgan.



Yaqinda muassasamizda saqlanayotgan voyaga yetmaganlarning yana bir ijodiy qirrasini kashf etildi. «To'g'rivoy va Egrivoy» nomli ertak asosida senariy yaratilib, bolalar uchun qahramon hayvonlar liboslari tayyorlandi. Har bir bola o'z rolini yuksak mas'uliyat bilan ijro etdi. Ulardagi iste'dodni ochib bera olganimizdan o'zimiz ham cheksiz mamnun bo'ldik.

Voyaga yetmaganlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish maqsadida davlat bayramlarini nishonlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat ramzlari kunlarida rasm chizish musobaqalari, bilimlar sinovi va rag'batlantirish tadbirlari o'tkazilib, bolalar ko'zidagi ishonch va umid uchqunlarini ko'rib, «ularga imkoniyat berilsa, albatta ijobiy tomonga o'zgarishadi», degan xulosaga kelamiz.

Shuningdek, bolalarning zo'ravonlik qurboni yoki jinoyat jabrlanuvchisiga aylanib qolishining oldini olish maqsadida ularga huquqiy tushunchalar berib boriladi. «Biz zo'ravonlikka qarshimiz!» aksiyasi doirasida markazda «Zo'ravonlik-siz hayot — farovon kelajak garovi» mavzusida huquqiy tushuntiruv mashg'ulotlari tashkil etildi. Unda bolalarga nisbatan sodir etilishi mumkin bo'lgan zo'ravonlik turlari hamda bunday holatlarda qanday harakat qilish lozimligi haqida tushunchalar berildi.

Xulosa qilib aytganda, Markaz faoliyati voyaga yetmagan bolalarni asrash, ularga mehr va ishonch bag'ishlash hamda hayotda to'g'ri yo'lni topishlariga ko'maklashishga qaratilgan. Har bir bola bilan yakka tartibda ish olib borish, ta'lim, kasb-hunar, ijod va huquqiy tarbiya orqali ularni jamiyatga moslashtirish xodimlarimizning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Ishonch, e'tibor va imkoniyat berilgan har bir bola, albatta, yaxshi tomonga o'zgaradi va munosib kelajak egasiga aylanadi.

Mahfuza SIROJOVA,
Toshkent viloyati IIBB JXX HPB Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi boshlig'i, podpolkovnik.

► Hamkasb haqida soʻz

FIDOYILIK VA KASBGA SADOQAT

Viloyat IIB JXX JTSB Kinologiya boʻlinmasi instruktor-kinologi, safdor Bunyod Anorboyev ichki ishlar organlari safida tinchlik va xavfsizlikni taʼminlash yoʻlida fidoyilik, sadoqat va yuksak masʼuliyat bilan xizmat qilayotgan xodimlardan biri.

Uning xizmat faoliyati nafaqat kasbiy mahorati, balki intizomi va jamoadagi oʻrnak boʻlarli munosabati bilan ham ajralib turadi. Bunyod oʻz xizmat burchini sidqidildan ado etib, hamkasblari orasida hurmat qozongan, ishonchli va masʼuliyatli xodim sifatida eʼtirof etib kelinmoqda.

Kinolog sifatida u xizmat itlaridan oqilona, samarali va maqsadli foydalanish borasida katta tajribaga ega. Ayniqsa, jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, sodir etilgan jinoyatlarni «issiq

izida» fosh etishda xizmat itlarining imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanib, amaliy natijalarga erishib kelmoqda.

U yosh xodimlarga ustozlik qilish, ularni kasb sir-asrorlariga oʻrgatish, xizmatga sadoqat ruhida tarbiyalashga ham alohida eʼtibor qaratadi. Uning maslahatlari, amaliy koʻrsatmalari koʻplab yosh kinologlar uchun mustahkam tayanch boʻlib xizmat qilmoqda.

Mahamadali SAYDULLAYEV, safdor.

Namangan viloyati.



► Bir tuman tarixi

BULUGʻAR, BURULGʻUR, BULUNGʻUR

Samarqand viloyati Bulungʻur tumani eng qadimiy va yirik tumanlardan biri hisoblanadi. Tabiati betakror, havosi toza, suvi mazali, chor-atrofi Turkiston togʻ tizimlari hamda Gʻoʻbdin togʻlari bilan oʻralgan. Tabiiy iqlimi, geografik joylashuvi, transport kommunikatsiyasi boʻyicha qulay imkoniyatlarga ega. Asosan bogʻdorchilik, uzumchilik, sabzavot va kartoshka yetishtirishga ixtisoslashgan.



Tumanning «Erganakli» mahallasi «Bolgʻali» qishlogʻi hududida joylashgan Xoʻja Hofiz Merosiy qadamjosi va uning yonidagi buyuk Sohibqiron bobomiz Amir Temur qurdirgan Sherzod harbiy qalʼasi yirik, nodir madaniy meros obyektlaridan biri hisoblanadi. Ushbu qalʼada hozirga qadar qazishma-qidiruv ishlari olib borilmoqda.

Oʻzbekiston Geografiya jamiyati aʼzosi Safarali Jalilovning Bulungʻur tarixi, ayniqsa Sherzod qalʼasi boʻyicha olib borgan koʻp yillik izlanishlari alohida tahsinga loyiq. Unda tarixchi Ibn Arabshohning «Amir Temur tarixi» kitobidan quyidagi aniq faktlar keltiriladi: «Amir Temur 1393-yil 22-avgustdan to 1396-yil 18-iyulgacha Sulton Ahmadga qarshi boʻlgan uch yillik urushdan soʻng, Samarqandga qaytadi. Keyin Samarqand atrofida bir qancha joylar (Sultoniya, Sherzod, Bogʻdod, Damashq va Misr nomi bilan atalgan qishloqlar) qurib, ularni yuqoridagi singari dunyodagi ulugʻ va poytaxt shaharlar nomi bilan ataydi».



Bu voqealar boshqa tarixiy kitoblar «Solnomasi»ga taqqoslanganida, uning 1397-yil mart oyidan 1398-yil aprelgacha boʻlgan oraliq ekani oʻyinlashadi. Shundan soʻng Sherzod qalʼasi moʻgʻullar bosqini davrida vayron qilingan Buzmajon qishlogʻi oʻrnida 1397-yil mart oyidan boshlab qurilgan ekan, deb aytishimizga asos paydo boʻladi. Uzoq yillardan buyon «Xoʻja Hofiz Merosiy» deb nomlanib kelinayotgan ushbu qadamjo – Sherzod qalʼasining tarixi keyingi yillarda keng va atroflicha oʻrganilmoqda.

Koʻplab tarixiy kitob va boshqa manbalarda ham Burkat (Bulungʻurning tarixiy nomi) Bulungʻur shahrining 3000 yoshdaligi haqida

ilmiy jihatdan isbotlangan aniq faktlar keltiriladi. Jumladan, Mirzo Ulugʻbekning «Toʻrt ulus tarixi» kitobida «Sherzod qalʼasi Samarqandning sharq tarafida, undan 4 farsax (32 km) narida joylashgan Buzmajon qishlogʻi oʻrnida Amir Temur tomonidan bunyod qilingan», deb aytilgan. Burkat haqidagi dastlabki maʼlumotlar X asrda yashagan arab sayyohi Ibn Havqalning «Kitob surat al-ard» («Yerning surati») kitobida ham keltirilgan. Shuningdek, taniqli yozuvchi Pirmul Qodirovning tarixiy mavzudagi «Boburnoma» romanida ham «Sherzod qalʼasi», «Bulungʻur qoʻrgʻoni», «Bulungʻur qoʻrigʻi» kabi jumalarni uchratish mumkin.

Bulungʻur shahri XVIII asrning ikkinchi yarmidan soʻng chor Ros-siyasi amaldorlari xohish-irodalariga koʻra «Rostovsevo», keyinchalik qizillar davrida «Krasnogvardeysk» deb nomlangan. Manbalarda taʼkidlanishicha, Bulungʻur tumanida Oʻrta asrlarda xonlarning «Bedana qoʻrigʻi», deb ataluvchi dam oladigan joyi boʻlgan.

Tumanning qoq markazidan oqib oʻtadigan «Bulungʻur» arigʻi boʻyidagi «Qizil kitob»ga kiritilgan 50 ga yaqin katta-yu-kichik buloqlar nafaqat tuman, balki butun viloyat koʻrki hisoblanadi. «Bulungʻur» arigʻi toʻgʻrisida 2 ta rivoyat boʻlib, birinchisi «Bulungʻur» soʻzi moʻgʻulcha «Bulugʻar», yaʼni «loyqa suv», degan maʼnoni anglatga, ikkinchi rivoyatda «Burulgʻur» soʻzidan olingan deyiladi. Chunki «Bulungʻur» arigʻi Zarafshon vodiysidagi eng qadimgi ariqlardan biri boʻlib, boshidan oxirigacha 90 kmlik masofada burilib-burilib oqadi. Shuning uchun ariqning nomi «Burulgʻur» soʻzidan olingani haqiqatga yaqinroq boʻlsa kerak, deb oʻylaymiz.

Samarqand va Jizzax chegarasidagi xalq tilida «Yuqori nuqta» deb ataluvchi mamlakatimizdagi eng baland tarixiy joy hisoblanib, bu yerda bir kunda toʻrt fasl manzarasi aks etib turishiga ham guvoh boʻlasiz.

«Gʻoʻbdin», «Fozil Yoʻldosh» nomli, «Mingchinor», «Oʻzbekiston» xoʻjaliklari hududidan qishin-yozin esib oʻtadigan «Ilon oʻtdi» shamoli tanga rohat baxsh etish barobarida tuman iqlimi, tabiatini moʻtadillashtirib turadi, desak mubolagʻa boʻlmaydi. Bu zamin labzi halol, qalbi buloq suvidek toza, mehnatkash, mehmondoʻst, asl sohibkor, bogʻbon, sabzavotchi mirishkor dehqonlar yurtidir.

Umida MAMADALIYEVA
tayyorladi.



Farmon va ijro

NSONGA SHONISH KERAK

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 33 yilligi munosabati bilan Prezidentimiz tomonidan «Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida»gi farmon imzolangan edi. Mazkur farmonga asosan afv etilganlarning 11 nafarini qoraqalpog'istonliklar tashkil etadi.

Yaqinda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisining o'rinbosari Alisher Allaniyazov va Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, polkovnik Baxtiyor Torebekov ishtirokida afv etilgan shaxslar bilan uchrashuv o'tkazildi. Unda afv etish doirasida oilasi va yaqinlari bag'riga qaytgan mahkumlarga bu hayotda o'z o'rnini topishi uchun berilgan imkoniyat ekanligi alohida ta'kidlab o'tildi.

Tadbirda tegishli idora va tashkilotlarning mas'ul vakillariga afv etilganlarning bandligini ta'minlash, yashash sharoitini yaxshilash kabi masalalarni hal etish bo'yicha topshiriqlar berildi. Shuningdek, ijtimoiy hayotga moslashib,

tomonidan belgilangan jazoni probatsiya hisobida o'tayotgan edim. Prezidentimizning farmoniga ko'ra, jazodan to'liq ozod etildim. Buning uchun davlatimiz rahbaridan behad minnatdorman. Albatta, bu men uchun berilgan imkoniyat deb bilaman va bildirilgan ishonchni halol mehnatim, munosib xulqim bilan oqlayman, – deydi Xo'jayli tumanida yashovchi N.Joldasbayev.

– Afv etilgan shaxslarning ijtimoiy moslashishlari borasidagi ishlar tizimli ravishda olib borilmoqda. Jumladan, ularga bir martalik nafaqa pulini ajratish, sog'lig'ini tiklash maqsadida bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazish va bandligini

Q. Allambergenovga tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun subsidiya ajratish masalasi hal etilmoqda. Jamiyatga moslashuvini yengillashtirish maqsadida ularga mahalla faollari murabbiy sifatida biriktirilgan, – deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV JXX Probatsiya bo'limi maxsus topshiriqlar bo'yicha inspektori, podpolkovnik Mirzabay Ametov.

Hayotda qoqilgan insonni suyash, xatosini anglab yetganlarga ishonish kerak. Bu ularga madad bo'ladi. Biz ham afv etilgan shaxslar kechirimlilik va bag'rikenglikning qadriga yetib, o'zlariga berilgan ushbu imkoniyatdan foydalanib, bundan buyon to'g'ri yo'lni



foydali mehnat bilan shug'ullanishi, jamiyat munosib o'rnini topishi uchun ularga ko'maklashishga qaratilgan vazifalar belgilandi.

– Men sodir etgan qilmishim uchun sud

ta'minlash choralari ko'rilmogda. Masalan, Amudaryo tumanilik R.Bekchanov xususiy firmalardan biriga ishga joylashtirilgan bo'lsa, Mo'ynoq tumanida yashovchi

tanlab, hayotda o'z o'rnini topib ketishiga ishonamiz.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.
Qoraqalpog'iston Respublikasi.

Muqaddas qo'rg'on

Farg'ona shahrining «Jo'ydam» mahallasida istiqomat qiluvchi Yorqinoi Nazarova Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti rektorining xotin-qizlar masalalari bo'yicha yordamchisi bo'lib ishlaydi. Yakuniga yetgan 2025-yil uning oilasiga omadli va baxtli kunlarni tuhfa etdi. Kuz oylarida qo'shaloq to'y qilib, bir emas, ikki oqila qizni kelin qilib tushirdi.

YORQINOI OPANING INSPEKTOR KELINI

Kelinlarining kattasi leytenant Xumora Muqimjonovaning hayotida ham 2025-yil unutilmas sahifalar bilan yodda qoladigan bo'ldi. Iyun oyida IIV Akademiyasini tamomlab, Farg'ona shahar IIOFMBda inspektor-psixolog bo'lib ish boshladi. Kuzda esa ziyoli bir oilaga kelin bo'lib tushdi.

Farg'ona shahrida tug'ilib kamolga yetgan Xumora bolaligidan otasiga havas qilib, huquq-tartibot sohasiga qiziqqani uchun dastlab IIV Farg'ona akademik litseyida, keyin esa Akademiyada tahsil olib, yetuk mutaxassisga aylandi. Bugun inspektor-psixolog sifatida zimmasiga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan bajarib kelmoqda. Shu bilan birga, kelinlik yumushlarini ham bekam-u ko'st ado etib, qaynota-qaynonasining duosiga musharraf bo'lyapti.

Turmush o'rtog'i Behzodjon Qodirov ham IIV Farg'ona akademik litseyini tamomlagach, oliy o'quv yurtida tahsil oldi. Ayni paytda Farg'ona shahrida hokim yordamchisi bo'lib ishlaymoqda.

– O'g'illarimni uylayman deb, yaxshi qizlarni ko'z ostimga olib yurgan paytimda Behzodjonga tanishlari Xumoraxonni tavsiya qilishibdi, yoshlar esa bir-biriga ma'qul kelibdi, – deydi Yorqinoi opa. – Bo'lajak kelinning suratini ko'rsatishgan-



da, yuragim jiz etdi-yu, mehrim tushib qoldi. Darrov sovchi bo'lib bordim. Taqdir ekan, mana, kelin qilib olib keldim. Juda chaqqon, qo'li gul, pazandaligi uchun oilamizda hamma undan minnatdor. Ishiga ham bimalol borib-kelib, ro'zg'orni ham do'ndiryapti.

Leytenant Xumora Muqimjonova erta tongda oila kattalaridan duo olib, ishga o'tlanadi. Dastlab boshqarmada bo'lib o'tadigan yo'riqnomada qatnashib, rahbariyat tomonidan aytilgan zarur topshiriqlarni o'ziga qayd etadi. Hujjat yumushlarini bajargach, xizmat hududiga jo'naydi. Unga Farg'ona shahridagi 3 ta ta'lim muassasasi biriktirilgan.

Kun davomida ta'lim dargohlarini birma-bir aylanib chiqadi. Davomat masalalari bilan qiziqadi. Muntazam dars qoldiradigan, huquqbuzarlik sodir etishga moyil, notinch oilalarda yashovchi o'quvchilarning ro'y-xatini shakllantirgan. Ularga alohida e'ti-

bor qaratadi. Basharti, darsga sababsiz kelma-gan bo'lsa, sinf rahbari bilan birga uyiga borib, profilaktik ishlarni tashkil etadi, ta'limga qaytarish choralari ko'radi. O'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ular o'rtasida sodir etilgan huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish maqsadida huquqiy mavzularda targ'ibot tidbirlari, ko'rik-tanlov va musobaqalar tashkil etadi.

Ana shunday yumushlar bilan andamon bo'lib, gohida qosh qorayganini ham sezmay qoladi. Keyin esa yangi kelinligi yodiga tushib, shosh-gancha uyga qaytadi. Ba'zan ozgina kech qolsa-da, ko'ngli xotirjam. Chunki oila a'zolarining barchasi ziyoli, davlat xizmatchilari, tushungan odamlar. Ana shunday yaxshi oilaga kelin bo'lib tushgani uchun dildan shukrona keltiradi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



VATAN MENI ULG'AYTIRGAN

Farg'ona shahar IIB Tergov bo'limi katta surishtiruvchisi, kapitan Umidjon Sayfutdinovga 2025-yil juda omadli keldi. Oilasida ham, ish joyida ham ko'plab quvonchli voqealar yuz berdi. Eng muhimi, o'z uyiga, ya'ni, kichik vataniga ega bo'ldi.

Farg'ona shahrining Moziy ko'chasidagi yangi qurilgan ko'p qavatli uydan 2 xonali xonadonni imtiyozli kredit asosida sotib olib, yaqinda yangi uyga ko'chib o'tdi.

Shahar Ichki ishlar boshqarmasi ma'muriy binosining yonginasida joylashgan ushbu ko'p qavatli uydan Umidjon bilan birga yana 47 nafar ichki ishlar organlari xodimlari o'z xonadonlariga ega bo'lishgan.

– Barcha hamkasblar bir joyda yashash juda zavqli bo'larkan, – deydi kapitan U. Sayfutdinov. – Qo'ni-qo'shnichilik rishtalarini o'rnatib, ahil-inoq, bir-birimizga suyanch va dalda bo'lib yashayapmiz. Eng e'tiborlisi, uyimizning derazasidan ishxonamiz shundoqqina ko'rinib turadi. Ishga kech qolish, uyga kech qaytish, degan noqulayliklar umuman yo'q. Tushlikda ham oilamdan xabar olib turaman. Bundan ortiq sharoit, bundan ortiq baxt bo'ladimi insonga. Ishlagan sari, ishlaging keladi.

Umidjon Beshariq tumanining Soylabi qishlog'ida tug'ilib kamolga yetgan. 2018-yilda IIV



Akademiyasini tamomlab, sohada ish boshlagan. Hozirda 2 nafar farzandi bor. Turmush o'rtog'i bilan yangi uyda xotirjam hayot kechirishmoqda. Yangi uyga ko'chib o'tgach, Beshariqda yashaydigan otasi Kamoldin Xolmatov, onasi

Gulbahorxon Turonovalarning ham ko'ngli xotirjam bo'ldi. Avvallari, farzandlari ijara uyda yashaganida, mehmonga kelgani xijolat tortishardi. Endi esa nabiralarini ko'rgani bimalol kelib-ketishmoqda.

– 2025-yildan juda minnatdorman, – deydi lavhamiz qahramoni. – Yangi yilda ham orzularim juda ko'p. Eng oliy maqsadim esa ana shunday imkoniyat va sharoitlar yaratib berayotgan Ona vatanimga, tanlagan kasbimga sadoqat bilan xizmat qilish, ota-onam va ustozlarimning ishonchini oqlash.

Darvoqe, Umidjon Sayfutdinovda ikkinchi iste'dodi ham bor. Bolaligidan adabiyotga mehr qo'yib, she'rlar yozib turadi. Vatanparvarlik va ichki ishlar organlari xodimlari haqida yozgan bir qator ijodiy ishlari gazeta-jurnallarda e'lon qilingan. 2018-yilda «Onajonim» nomli she'riy to'plami ham nashr etilgan.

– Vatan haqida quyidagi yangi misralarni qog'ozga tushirayotgandim, – deya hali siyohi qurimagan she'ridan o'qib berdi:

*Vatan meni ulg'aytirgan,
Sharafim ham shonimsan.
Ko'zimning oq-u qorasi,
Ko'ksimdagi jonimsan.
Bobolarim yotgan tuproq,
Ona yer – makonimsan.
Dunyo ichra eng ulug'im,
Hur O'zbekistonimsan.*

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

► Xorij tajribasi

MEKSIKA POLITSIYASI VA NARKOBIZNES

2026-yilda Meksika, Kanada va AQSH futbol bo'yicha jahon chempionatiga mezbonlik qiladi. Shu munosabat bilan ayni yoz oylarida mamlakatga katta miqdorda sayyohlar kirib kelishi kutiladi. Ana shunday paytda qadimiy sivilizatsiyaga ega Meksikada jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikning oldini olish masalasi kun tartibiga chiqadi. Bu vazifaga mamlakat Federal politsiyasi mas'ul hisoblanadi.

Meksika Federal politsiyasi 1999-yilda tashkil etilgan. Dastlab Federal profilaktika politsiyasi deb yuritilgan. Chorak asrlik faoliyati davomida ko'plab narkokartellar, uyushgan jinoyatchilik to'dalari fosh etilgan. Uning bosh idorasi Mexiko shahrida joylashgan.

2008-yilda mamlakat Prezidenti Felipe Kalderon



etildi. Jinoyatchilikka qarshi kurash borasida qo'shimcha vazifalar yuklanib, migratsiya xizmati, g'aznachilik va yo'l politsiyasi kabi yirik idoralar unga qo'shildi. Mamlakatdagi ko'plab yirik avtovokzallar va aeroportlarda bo'linmalari tashkil etildi.

Hozirgi paytda Federal politsiyaning mamlakatning 31 shtatida o'z bo'limlari bor, politsiyachilar soni esa 40 ming nafarga yetgan. Qariyb 130 million aholi tinchligi va osoyishtaligiga javobgar Federal politsiya yettita tarkibiy tuzilmaga ega: Bosh boshqarma, Tergov bo'limi, Razvedka

bo'limi, Mintaqaviy xavfsizlik bo'limi, Ichki nazorat bo'limi, Narkojinoyatlarga qarshi kurash bo'limi, Yo'l politsiyasi.

Federal politsiyaga nomzodlardan muqaddam sudlanmaganlik, sog'lom, 18–37 yosh oralig'ida bo'lish, alkohol va giyohvandlik moddalari iste'mol qilmaslik, Meksika fuqarosi ekanligi kabilar talab qilinadi.

Shuningdek, mamlakatning har bir aholi yashash punktida mahalliy politsiya ham faoliyat ko'rsatadi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV
tayyorladi.



Federal profilaktika politsiyasi faoliyati samaradorligini shubha ostiga oldi. Buning sababi, mamlakatda narkokartel urchib ketgani edi. Prezident ushbu muammoni bartaraf etishda milliy armiyaga tayandi. Harbiylar narkokartellar rahbarlarini ta'qib qilib, qo'lga oldi. Shundan keyin, 2009-yili Federal profilaktika politsiyasi Federal politsiya etib qayta tashkil



❖ Tinchlik hukm surgan, qonun ustuvor bo'lgan, fuqarolarning xavfsizligi ta'minlangan joyga investitsiya ham keladi, bu yerda turizm ham rivojlanadi.

❖ Yurtimizdagi har bir bola, har bir yosh – bizning farzandimiz, ularni giyohvandlik changaliga tashlab qo'yishga aslo yo'l qo'ymaymiz.

Giyohvandlikni tag-tomiri bilan butkul yo'qotish, yoshlarimizda kuchli ma'naviy-ruhiy immunitetni shakllantirish bo'yicha barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar qilamiz.

Bu – Prezidentning topshirig'i, bu – otalarning xohish-istagi, bu – jamiyatning talabi!



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan.

❖ Hech qachon unutmaylik, oilaviy zo'rvonlik bu faqat oilaning ichki ishi emas, bu butun jamiyatga tegishli masala. Ayolni o'z muammosi bilan yolg'iz tashlab qo'yishga hech kimning haqqi yo'q!

❖ Korrupsiya – davlat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng jiddiy tahdid. Korrupsiyaga yo'l qo'yish esa – islohotlarimizga xiyonatdir. Bu illatga qarshi kurashish bo'yicha 2026-yilda «favqulodda holat» e'lon qilamiz.

Mulohaza

Tushlikka somsa pishirdim. Tepa qavatdagi qo'shnimga ham ilindim. Ochiq chehra bilan qarshilagan kelinchak, salom-alik qilib, «Ovora bo'libsiz-da, opa, rahmat, uyga kiring», – deya qo'limdan likopchani oldi. Kelinchak ichkariga kirib ketdi. Shunda uyning yo'lak devoriga suyanib, qo'rquv aralash ko'zlarini katta-katta ochganicha, menga tikilib turgan ikki bolakayga ko'zim tushdi. Ularning kattasi 4–5 yoshlarda chamamda, men tomonga ikki qadam tashladi-da: «Bizni urushgani, baqirgani kelmadizmi? Militsiyaga berib yubormaysiz-a, u meni qamab qo'ymaydi-ya, meni jazolamaydi-ya?», – deya savol berdi. Kutilmagan bu so'roqqa qanday javob qilishimni bilmadim. Keyin: «Bolam, nega seni militsiyaga berroraman. Ular bolalarni olib ketmaydi, balki yomonlardan asraydi, aybi yo'qni jazolamaydi», – deb tursam, ortga qaytgan onasi: «Opa, bunga e'tibor bermang», – deya biroz xijolat tortgan bo'ldi. Shunda «Bolalarni militsiya bilan qo'rqitasizlarmi?» – deya so'radim. «Yo'g'-a, opa, o'sha kuni uyimizga

shunchalar qo'rqinchli odammi? Yoshimiz ulg'ayib, ularning ham xuddi o'zimiz singari inson ekanligini, ular davlat xizmatchisi sifatida bizga faqat yaxshilik uchun xizmat qilishini tushunib yetdik. Biroq, afsuski, bolalarni «militsiya» bilan qo'rqitish hamon «urf»da.

Bugun ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy, salbiy tomonlari haqida ko'p va xo'p so'z yuritiladi. Biroq ularda tarqatilayotgan yangiliklar, kundalik turmushdagi ayrim holatlar odamlarni mulohazaga, mushohadaga unda-yotgani ham rost. Kim-largadir

ko'zgu tutib, jamiyatimizdagi ayrim illatlarni yo'qotishga xizmat qilayotganini ham tan olishimiz kerak. Yuqoridagi holat ham aslida shu ma'noda yozilgan. Chunki murg'ak bolajonning sho'xligi bir olam. Uni qanchalar to'g'ri jilovlash esa ota-onasining, yaqinlarining gardanida.

Xalqimizda «Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona» degan maqol bor. Ushbu maqol ham bolalarning to'polonidan bezgan qo'shning «militsiyaga berroraman», degan qo'rqitishini yoqlamaydi.

Shu o'rinda haqli savol tug'iladi. Bolalarning sho'xligini nimanidir, kimnidir sabab qilib bostirish, aniqroq qilib aytganda, qo'rqitib tarbiyalash noto'g'ri hisoblanmaydimi? Undan ko'ra bolaning ichki olami, qiziqishlariga ahamiyat qaratib, uni o'zi yoqtirgan mashg'ulotlarga, sport turlariga berish orqali ichki g'ayratini to'g'ri yo'naltirish, hayotga qarashlarini shakllantirish ma'qul emasmi? Ularni nega darrov «militsiyaga berib yuboramiz», – deya to'xtatish kerak?

Bolalar tabiatan ishonuvchan bo'ladi. Ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan noto'g'ri qarash bilan ulg'aygan bolalar keyinchalik ularga qanday munosabatda bo'lishini hech o'ylab ko'rganmisiz? Keyin ular bolalarning tasavvurida jazolovchi bo'lib gavdalanmaydi, deya olasizmi? Zero, bolalikda olingan bilim, tarbiya bamisoli toshga o'yilgan naqsh. Bu yosh avlodning huquq-tartibot, huquqiy me'yorlar, qonunlar borasidagi tushunchalarini yemirmaydimi? Mavzuning o'ylantiradigan jihati shunda.

Bugun zamon o'zgardi. Ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos yangi usullari o'sib kelayotgan avlodlarni jahonning intellektual salohiyatli yoshlari qatoriga qo'shilishiga xizmat qilmoqda. Shunday ekan, bolalarni «Militsiyaga berroraman», deya qo'rqitib tarbiya qilish «usuli» ham har jihatdan eskirdi. Bu tarbiyada noto'g'ri yechim. Siz bolalaringizning bo'yidan baland sho'xligini kulol loydan ko'za yasaganidek mohirona sayqallangki, ularning fikrati toza bo'lib ulg'aysin. Ichki ishlar organlari xodimlarini jazolovchi emas, jamiyatda tinchlik-osoyishtalikni, qonun ustuvorligini ta'minlovchi davlat xizmatchisi sifatida tanisin. Shunda ularning orasidan shaxti-shijoati baland ichki ishlar organlari xodimlari ham yetishib chiqadi.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA.

ovsinimning bolalari mehmonga kelgandi. Hovlida katta bo'lishgan, bizda domchilik, keyin bola bolaga qo'shilsa to'polon qiladi-da. Ularning to'polonini eshitib, yon qo'shnimiz chiqib: «To'polon qilsalaring, militsiyaga berroraman, jazolaydi», – deb bolalarni qo'rqitgandi. Shundan beri kattam eshik tiq etsa, militsiya keldimikin, deb qotib qoladi», – dedi... (Ijtimoiy tarmoqdan oqqa ko'chirildi.)

Bilasizmi, yuqoridagi holat bolaligimizda sho'xligimiz haddan oshganda, kattalarning bizni «Ana, militsiya, kelyapti», – deya tartibga chaqirib, qo'rqitishni eslatib yubordi. O'shanda «militsiya»dan rosa qo'rqardik. Aslida ichki ishlar organlari xodimlari



IJOBIY O'ZGARISH – PROFILAKTIKA SAMARASI

Mamlakatimizda huquqbuzarlikka qarshi ma'rifat, yuksak ong va mas'uliyat bilan kurashilmoqda. Mahalla raisi, profilaktika inspektori, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi – bularning har biri o'z vazifasini vijdonan bajarsa, butun mahalla tinch va osuda yashaydi.



Samarqand viloyatida jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

– Joriy yilning o'tgan davrida mast holdagi shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 15,1 foizga yoki 22 taga, ishsizlar jinoyati esa 67,2 foizga yoki 80 taga, muqaddam sudlanganlar jinoyati esa 15,1 foizga yoki 29 taga kamaydi. Kriminogen vaziyati og'ir deb baholangan 106 ta mahallaning 34 tasi yoki har uchinchisi «yashil» toifaga o'tib, «qizil» toifadagi mahallalar soni 61 taga yoki 75 foizga kamayishiga erishildi. Jinoyatning obyektiv va subyektiv sabablari tahlilidan kelib chiqib hodisa joyiga 5 daqiqada yetib borish tizimi yo'lga qo'yildi. Sinov tariqasida markaziy tayanch punktlari tashkil etilib, 24/7 ya'ni, tun-u kun ishlash tartibiga o'tildi. Buning natijasida viloyat bo'yicha kuniga «112» tizimidan tushayotgan murojaatlar soni 1000 tadan 700 taga yoki 30 foizga kamaydi, – deydi viloyat IIB JXX HPB boshlig'i, podpolkovnik Ma'ruf Shermuhammedov.

Viloyat hududida jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, oila-turmush doirasidagi og'ir va o'ta og'ir turdagi jinoyatlarning profilaktikasini tashkil etish maqsadida 2 bosqichda «Xavfsiz oila», «Nazorat», «Turmush», «Davomat», «Tig'», «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni» hamda «Tungi reytd»

kabi maxsus profilaktik tadbirlar muntazam o'tkazilib kelinmoqda. Fuqarolarni ogohlikka chaqiruvchi «Hudud kamera nazoratida», «Obyekt qo'riqlovda» va «Xonadon qo'riqlovda» kabi stikerlar o'rnatildi.

Jinoyatga qarshi kurashishda faqatgina jazo emas, ma'rifat ham muhim. Shu bois mahallalarda «Huquqiy soat», «Yoshlar suhbatlari», «Oiladagi sog'lom muhit – xavfsiz ko'cha va xavfsiz mahalla tayanchi» kabi uchrashuvlar o'tkazilmoqda. Bu tadbirlarda inson qalbiga yetish, uni anglash, tinglashga e'tibor qaratilmoqda.

Shuningek, profilaktika inspektorlari xonadonma-xonadon yurib, har bir oilaning turmush tarzi, shart-sharoitlari, ijtimoiy-ma'naviy muhitini o'rganishyapti. Bilib-bilmay xatoga yo'l qo'ygan yoshlar bilan tarbiyaviy suhbatlar olib borishmoqda. Natijada ular to'g'ri yo'lga kirib, jamiyatga foydali insonlarga aylanmoqda. Jumladan, hayotda qiynalgan, ichkilikka ruju qo'ygan bulung'urlik Sheralini (ismi o'zgartirildi) mahalla faollari ish bilan band qildi, psixolog bilan uchrashuv tashkil etishdi. Ayolini ham oshxonaga ishga joylashtirishdi. Bir yil o'tib u nafaqat sog'lom turmushga qaytdi, balki boshqalarga ham yordam beradigan insonga aylandi, hayotga ishonchi ortdi. Bu profilaktika ishi-ning katta samarasi bo'ldi.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

► Kasb fidoyisi

YOSHLAR TAQDIRI UCHUN MAS'ULLIK

Bugun yosh avlod tarbiyasi, ularni turli yot ta'sirlardan asrash, jinoyat va huquqbuzarlik yo'lga kirib qolishining oldini olish – har bir mas'ul idora va xodimning burchiga aylangan.

Shu ma'noda Chortoq tumani IIB voyaga yetmaganlar bilan ishlash inspektorlari, ayniqsa, ularning kundalik fidokorona faoliyati tahsinga loyiq.

Ushbu xizmat tomonidan tumanda joylashgan 57 ta umumta'lim maktabi, 2 ta kasb-hunar maktabida voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga qaratilgan targ'ibot va profilaktik tadbirlar amalga oshirildi. Uchrashuvlarda yoshlar bilan ochiq muloqot, qonunbuzarlikning ayanchli oqibatlar haqida ta'sirchan suhbatlar olib borildi. Bu esa o'z samarasini berib, tumanda voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning kamayishiga erishildi.

Ayniqsa, tuman IIB VY va YBIG katta inspektori, kapitan Rahmatilloxon Sobitxonovning shaxsiy tashabbusi va mas'uliyatli yondashuvi e'tiborga molik. U nafaqat xizmat vazifasini bajarish, balki har bir bolaning ichki dunyosiga kirib borish, uni tinglash va tushunishga harakat qilmoqda. Tarbiyasi og'ir bo'lgan 6 nafar o'quvchi bilan yakka tartibda suhbatlar o'tkazib, ularning qiziqish va iste'dodlarini o'rgandi. Natijada ushbu yoshlar axborot texnologiyalari hamda koreys tili bo'yicha o'quv kurslariga jalb etildi. Bu esa ularning bo'sh vaqtini

mazmunli tashkil etish, o'z ustida ishlashga undash yo'lida muhim qadam bo'ldi.

Shuningdek, kapitan Rahmatilloxon Sobitxonov boshchiligidagi o'tkazilgan profilaktik tadbirlar davomida tuman hududida nazoratsiz va qarovsiz yurgan 37 nafar yoshlar aniqlanib, Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlariga joylashtirildi. Eng quvonarli jihatlardan biri esa bedarak yo'qolgan 1 nafar voyaga yetmaganning tezkorlik bilan topilib, ota-onasiga sog'-salomat topshirilganidir.

– Bola e'tiborga, mehrga va to'g'ri yo'lga muhtoj. Asosiy maqsad – ularni jazolash emas, balki hayotda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish, – deydi lavhamiz qahramoni.

Aytish joizki, bunday insonparvarlikka asoslangan profilaktik ishlar nafaqat huquqbuzarliklarning oldini oladi, balki yoshlar qalbida ishonch, mas'uliyat va kelajakka umid uyg'otadi.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.



► Саломатлик сабоқлари

МЕЪЁРНИ БИЛГАН ЯХШИ

Янги йилни тўкин дастурхон атрофида кутиб олишга одатланганмиз. Аммо байрам кунлари нотўғри овқатланиш ошқозон-ичак тизими, юрак-қон томир ҳамда эндокрин касалликларининг кучайишига сабаб бўлиши мумкин. Шу боис бири-биридан мазали таомларни тановул қилишда меъёрни унутманг.



Асосий қоидалар

Таомларни оз-оздан, секин чайнаб ейиш ҳазм жараёнини енгилаштиради. Барча егуликларни кетма-кет истеъмол қилиш ошқозонга ортиқча юк туширади. Шунинг учун 2–3 хил таом билан чекланиш мақсадга мувофиқ.

Ёғли ва қовурилган таомлар — жигар душмани

Ортиқча ёғли, қовурилган овқатлар ўт пуфаци ва жигар фаолиятини қийинлаштиради. Бу эса оғизга аччиқ таъм келиши, кўнгил айниши ва қорин соҳасида оғриқлар пайдо бўлишига олиб келади. Айниқса, холецистит, панкреатит хасталиклари билан оғриган беморлар бундай таомлардан воз кечиши керак.

Салатлар — фойдали, аммо...

Сабзавот ва кўкатлардан тайёрланган салатлар организм учун фойдали ҳисобланади. Бироқ уларга кўп миқдорда туз ва майонез қўшмаслик лозим. Туз ортиқча бўлса, қон босими кўтарилиши мумкин, майонез эса юқори калорияли бўлгани сабабли ошқозонга оғирлик қилади. Унинг ўрнига зайтун ёғи ёки лимон шарбати қўшиш фойдали.

Ширинликлар ва қандли маҳсулотлар

Қандли диабет билан оғриганлар ширинликларни чеклаши шарт. Соғлом инсонлар ҳам

торт ва пирогларни меъёридан ортиқ истеъмол қилмаслиги лозим. Ширинликлар ўрнига мева ва қуритилган мевалардан ейиш мақсадга мувофиқ.

Меваларни тўғри танланг

Тиббий нуқтаи назардан олма, нок, апельсин ва мандарин ҳазми енгил мева ҳисобланади. Бироқ цитрус мевалар ошқозон кислотасини ошириши мумкин, шу сабабли гастрит билан оғриганлар эҳтиёткор бўлиши лозим. Банан таркибида крахмал кўп бўлгани учун кечқурун истеъмол қилиш тавсия этилмайди.

Спиртли ичимликлар — жуда хавфли

Шифокор сифатида спиртли ичимликларни истеъмол қилмаслик ёки имкони борича чеклашни қатъий тавсия этардим. Айниқса, ошқозон-ичак, жигар ва юрак хасталиклари борлар учун спиртли ичимликлар жуда хавфли.

Қолган овқатларни истеъмол қилманг

Тиббий амалиётда байрамдан кейинги кунларда овқатдан заҳарланиш ҳолатлари кўпайиши кузатилади. Бу кўп ҳолларда байрам дастурхонидан қолган салат ва таомларни истеъмол қилиш билан боғлиқ. Шунинг учун узоқ вақт туриб қолган овқатларни ейиш тавсия этилмайди.

Тикланиш даври

Байрамдан кейин 2–3 кун давомида енгил овқатланиш лозим. Қатик, сабзавотли шўрвалар, қайнатилган таомлар, кўпроқ сув ичиш организмнинг тикланишига ёрдам беради.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, байрам шодлиги саломатликка зарар етказмаслиги лозим. Бунинг учун эса таомланишда меъёрни билинг, ошқозонга дам беришни унутманг.

Фарҳод БОЙЗОҚОВ,

Наманган вилояти ИИБ Тиббиёт бўлими поликлиникаси гастроэнтеролог шифокори.

Кўзни равшан қилувчи маҳсулот

Кўриш қобилиятингиз яхши бўлишини истасангиз, ҳар куни мунтазам равишда 4–5 донадан бедана тухуми ейишни одат қилинг.



У кўрув нерви учун фойдали бўлган бир қатор моддаларга бой, таркибида холестерин мавжуд эмас. Бундан ташқари бу кўринишдаги тухум иммунитетни мустаҳкамлайди, овқат ҳазмини енгилаштиради, қон босимини меъёрга солиб, асаб тизими фаолиятини ва хотирани яхшилайдди.

Бедана тухуми аллергия келтириб чиқармайди. Унда организмнинг соғлом фаолияти учун зарур бўлган микроэлементлар, аминокислота ва витаминлар бор. Шундай қилиб, унинг мунтазам истеъмоли нафақат кўз нуруни равшан қилади, балки бутун тана саломатлигини яхшилашга ҳам ёрдам беради.

Фойдали реза мева

Ҳамма бирдек севиб истеъмол қиладиган хўжағат (малина) бир қатор фойдали минерал ва витаминларга бой бўлиб, иммунитетни мустаҳкамлашга ёрдам беради. Бошқа реза мевалардан фарқли ўлароқ,



у қайнатилганда ҳам, димлаб пиширилганда ҳам ўзининг фойдали хусусиятларини йўқотмайди. Малина чанқоқни қондиради, овқат ҳазм қилиш жараёнини яхшилайдди, иштаҳани очади. У одатда шамоллаш, грипп, ўткир респираторли инфекциялар, бўғимларда оғриқ ёки радикулит кузатилганда қўлланилади.

Ундан тайёрланган қайноқ чой терлатувчи хусусиятга эга бўлиб, тер орқали барча микроб ва вируслар ҳамда ортиқча тузлар чиқиб кетишига хизмат қилади. Малина кўтарилган ҳароратни, қон босимини туширади, тери ҳолатини яхшилайдди, ортиқча ёғларни эритади. У иш фаолияти ёки ҳаёти асабий зўриқиш билан кечадиган инсонлар учун жуда фойдали.

ШИФОБАХШ
ЗИРАВОР

Енги қиздирувчи, бироз тахир мазага ва ёқимли ифорга эга бўлган ёрқин сариқ рангли зарчува таркибидаги асосий таъсир қилувчи модда куркумин ҳисобланади. Темир, марганец ва калийга бой зарчува нафақат ошхонада таомларга чиройли ранг ва лаззат бахш этади, балки тиббиётда ҳам кенг қўлланилади.



Миллий таомномамизда муҳим зираворлардан бири ҳисобланган бу маҳсулот тана ҳужайраларига зарар етказувчи эркин радикалларни нейтралловчи кучли антиоксидант бўлиб, организмни токсинлардан тозалайди, жигар фаолиятини яхшилайдди, оғриқни камайтиради ва иммунитетни оширади. Зарчува овқат ҳазмига, саратон ва диабетнинг олдини олишга, озишга ёрдам беради. Шу билан бирга, қариш жараёнини секинлаштириб, қонда қанд миқдори ва холестерин даражасини ҳамда сурункали хасталиклар ривожланиши хавфини камайтиради.



Зарчува сувда эримайди, ўсимлик ёғи ва қора мурч билан бирга қабул қилинганда, танада яхши ўзлашади ва фойдали хусусиятларини намоён этади. Ушбу табиий маҳсулот ошқозон-ичак, юрак-қон томир тизими фаолиятини яхшилайдди ва метаболизмни тезлаштиради. У мия фаолиятига ижобий таъсир кўрсатади ва инсульт, паркинсон, альцгеймер касалликларида қўлланади.

Шунингдек, куркумин терини намлантириш ва озиқлантиришда самарали восита ҳисобланади. Кўпинча табиий ниқоблар таркибига қўшилиб, пигмент доғлар, ҳуснбузар ва яллиғланишларни камайтиришга ёрдам беради.

Нодира ЭШҚУВВАТОВА,
ИИБ Марказий поликлиникаси шифокори.



► Sohaviy xizmatlarda

**MANZILLI
PROFILAKTIK ISHLAR****ijobiy natijalar bermoqda**

Chiroqchi tumani IIB JXX Probatsiya guruhi tomonidan nazoratdagi har bir shaxsning kundalik turmush tarzi, ijtimoiy muhiti va xulqi muntazam o'rganib borilmoqda. Shuningdek, ular ishtirokida muntazam tarzda profilaktik suhbatlar o'tkazib kelinyapti. Bu sa'y-harakatlar mahkumlar qayta jinoyat sodir etishining oldini olish, ularni to'g'ri yo'lga boshlash va jamiyatga moslashtirishda ijobiy natijalar bermoqda.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida o'tgan yili o'z qilmishidan chin dildan pushaymon bo'lib, tuzalish yo'lini tanlagan 106 nafar mahkum sud qarorlari asosida muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilindi. Aksincha, belgilangan cheklov va taqiqlarga rioya qilmagan, sud tomonidan yuklatilgan majburiyatlarga beparvo munosabatda bo'lgan 22 nafar shaxsning jazolari og'irrog'iga almashtirildi. Bu esa jazo muqarrarlari tamoyili amalga ta'minlanayotganidan dalolat beradi. Qolaversa, qidiruvda bo'lgan besh nafar mahkum ushlanib, ularga nisbatan qonuniy choralar ko'rildi.

Ayni vaqtda Probatsiya guruhi hisobida 102 nafar ozodlikni cheklash, 88 nafar axloq tuzatish ishlari,



11 nafar sinov hamda 54 nafar muayyan huquqdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan mahkum bilan manzilli profilaktik ishlar davom ettirilmoqda.

Mahkumlarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash, ularni halol mehnatga jalb etish maqsadida 2025-yilda 24 marta mehnat yarmakalari tashkil etildi. Natijada 38 nafar shaxs doimiy ish joyiga ega bo'ldi. Shu bilan birga, 24 nafar mahkum monomarkazlarda kasb-hunarga o'qitildi.

Xullas, Probatsiya guruhi tomonidan amalga oshirilayotgan tizimli nazorat, profilaktika va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ishlari mahkumlarni tuzatish, ularni jamiyatga qaytarish hamda jinoyatchilikning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Joriy yilda ham ushbu yo'nalishdagi ishlar izchil davom ettirilishiga shubha yo'q.

Ahmad RAJABOV,
kapitan.

Qashqadaryo viloyati.

► Kasb fidoyisi

«PODPOLKOVNIK EGAMBERDIYEV ESHITADI»

Jizzax viloyati IIB Tashkiliy boshqarma Navbatchilik qismi katta inspektor-navbatchisi, podpolkovnik Baxtiyor Egamberdiyevning xizmat mas'uliyati safdoshlaridan bir pog'ona yuksak, desak, xato bo'lmas. Lavhamiz qahramoni uchun sergaklik, aniqlik va intizom qat'iy qoidaga aylangan. Har gal navbatchilikka o'tlanar ekan, 24 soat davomida qaynoq nuqtada bo'lish mas'uliyati uni uyidan chiqmasdanoq qamrab oladi...

Ichki ishlar xodimi bo'lish orzusi qahramonimizda 1987–1989-yillarda Uzoq Sharqda harbiy xizmatni o'tagan paytlarida paydo bo'lgan edi. Yigitlik burchini o'tash davomida serjant unvonini olgan o'g'lon yo'l-lanma asosida Toshkent Avtomobil va yo'llar institutiga o'qishga kirdi.

Tahsil barobarida poytaxt Ichki ishlar boshqarmasida amaliyot o'tadi. Institutning harbiy kafedrasida tahsil olib, «zaxiradagi leytenant» unvonini oldi. Oliygo'ni tamomlagach, ikki yil mobaynida Jizzax shahridagi 10-sonli avtokorxonada muhandis bo'lib ishladi. Ammo osoyishtalik

posboni bo'lish orzusi hali gurillab turardi. Shu bois 1996-yilning mart oyida ichki ishlar organlariga qabul qilinib, mart-iyun oylarida Toshkent viloyati IIB huzuridagi o'quv markazi tinglovchisi bo'ldi.

Mana, 30 yildirki, u Jizzax viloyati ichki ishlar organlarida namunali xizmat ko'rsatib kelmoqda.

– **O'tgan yillar mobaynida bir qator lavozimlarda xizmat qildim, – deydi podpolkovnik Baxtiyor Egamberdiyev. – Viloyat bo'yicha barcha tezkor ma'lumotlarni qabul qilish, voqea joyiga tezkor guruhlar yetib borishini ta'minlash kabi shoshilinch vazifalarni bajarish chog'ida har soniyaning qiymatini his qilaman. Xizmat vazifam naqadar zalvorli, muhim ekanidan g'ururlanaman.**

Ustozlar pand-nasihatlarini, vazifa yo'riqnomasini puxta o'zlashtirgan podpolkovnik bugun o'zi ham ustoz. Oltmish yosh ostonasiga qadam qo'yar ekan, sohaga kirib kelayotgan yosh xodimlarga boy tajribasi, soha sirlarini o'rgatishni qizg'anmaydi. Halol xizmat, fidoyi mehnat besamar qolmasligini ta'kidlaydi.

... Bugun ham dam olishdan so'ng yana navbatchilik kuni. Xizmat libosini kiyib, ish sari yo'lga o'tlanar ekan, navbatchilikning tinch o'tishini – yurtning osoyishta, xavfsiz bo'lishini tilab dasturxonga duo qildi...

Muqaddas SAPAROVA,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

**2025-YILDA:**

Sanoatda yuqori texnologik va **kam energiya** iste'mol qiladigan tarmoqlar rivojlandi.



1 dollar mahsulot uchun sarflanadigan yoqilg'i-energiya miqdori **13 foizga** kamaydi.



Bu jarayon **1 milliard** dollarlik qo'shilgan qiymat yaratish imkonini berdi.

**2026-YILDA:****TERGOVNI
RAQAMLASHTIRISH**

Tergov jarayonlariga **sun'iy intellekt** joriy etilib, inson omili keskin qisqartiriladi.

**SUD VAKOLATLARI**

Tergov sudyalariga **sanksiyalarni o'zgartirish** va **bekor qilish** vakolati beriladi, sud qarorlari ijrosida sun'iy intellektdan foydalaniladi.

**JAMOATCHILIK
ISHTIROKI**

«**Xalq vakillari hay'ati**» instituti joriy etilib, o'ta og'ir va jamiyatda aks sado bergan ishlar **jamoatchilik ishtirokida** ko'rib chiqiladi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan.

ЯНГИ БОСҚИЧГА ҚЎЙИЛГАН ИЛК ҚАДАМ ЭНДИ ИНГЛИЗ ТИЛИДАГИ САҲИФАМИЗНИ ҲАМ ЎҚИШИНГИЗ МУМКИН

Ҳурматли муштарийлар!

Бугун биз шиддат билан ўзгараётган ва ахборот чегаралари тутатиб кетаётган замонда яшамоқдамиз. Ўзбекистон ички ишлар органлари ҳам замон билан ҳамнафас қадам ташлаб, очиқлик, шаффофлик ва халқ манфаатларига хизмат қилиш тамойиллари асосида тубдан ислох қилинмоқда.

Тизимда амалга оширилаётган кенг кўламли янгиланиш ва ўзгаришларни нафақат мамлакатимизда, балки халқаро миқёсда ҳам кенг ёритиш, соҳа ходимларининг ижобий қиёфасини жаҳон ҳамжамиятига танитиш мақсадида эндиликда нашрларимиздаги мақолалар инглиз тилида ҳам эълон қилиб борилади.

Биз дунёга нималар ҳақида сўзлаймиз?

Хорижий ҳамкорларимиз, халқаро экспертлар ва кенг китобхонлар оммасини ички ишлар органлари ҳаётидаги энг муҳим янгиланганлардан бохабар қилиш мақсадида саҳифаларимизда куйидаги мавзулар изчил ёритиб борилади:

- тизимдаги ислохотлар: хавфсизлик ва қонун устуворлигини таъминлашга қаратилган янги ҳуқуқий механизмлар ва таркибий ўзгаришлар таҳлили;
- мардлик ва жасорат: юртимиз тинчлиги йўлида хизмат қилаётган, кундалик фаоли-

ятида қаҳрамонлик кўрсатаётган ходимларнинг ибратли ҳаёти ва фаолияти;

• ижтимоий ҳимоя ва эътибор: хотин-қизлар ва болалар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, давлат томонидан уларга кўрсатилаётган ғамхўрликлар ҳамда соҳада фаолият юритаётган аёл ходималар эришаётган муваффақиятлар;

• рақамлаштириш ва инновациялар: лойиҳалар ва юқори технологияларнинг соҳага татбиқ этилиши ҳамда жиноятчиликка қарши курашишнинг замонавий усуллари;

• авлодлар ва анъаналар давомийлиги: соҳа фахрийларининг бой тажрибаси, ички ишлар органларидаги сулолалар ҳамда ёш кадрларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш жараёнлари;

• халқаро ҳамкорлик: глобал

хавфсизликни таъминлаш йўлида жаҳоннинг етакчи ҳуқуқни муҳофаза қилиш ташкилотлари билан йўлга қўйилган алоқалар.

Нима учун бу муҳим?

Асосий мақсадимиз — янгиланаётган ички ишлар органларининг инсонпарвар, профессионал ва халқчил қиёфасини дунёга намойиш этиш.

Сизни эса ушбу янги саҳифаларни ва-рақлашга ва ислохотларимиз гувоҳи бўлишга таклиф этамиз. Бизни кузатишда давом этинг — энди жаҳон тилида!



БАЙРАМ ТАБРИГИ



Дунёда инсон учун тинчликдан кўра азизроқ неъмат йўқ. Бугунги кунда мамлакатимизнинг тараққий топиши, халқаро майдонда обрўси янада ошиши, шунингдек, аҳолининг ижтимоий-иқтисодий ҳаётида рўй бераётган ижобий ўзгаришлар айнан юртимизда ҳукм сураётган тинчлик-осойишталик ва амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотлар билан чамбарчас боғлиқдир.

Албатта, бу бебаҳо неъматни асраб-авайлаш, қонун устуворлиги ва ҳуқуқ-тартиботни, фуқаролар хавфсизлигини таъминлашдек машаққатли вазифани адо этиш йўлида бор куч-ғайратини бағишлаб келаётган ички ишлар органлари ходимларининг хизматлари ҳар қандай таҳсинга лойиқ.

Фурсатдан фойдаланиб, барча осойишталик посбонларини Янги йил байрами билан чин кўнгилдан табриклаб, уларга мустаҳкам соғлиқ, бахт-саодат, хонадонларига файзу барака, масъулиятли фаолиятларида улкан муваффақиятлар тилайман!

Мақсет УТЕМУРАТОВ,
Қорақалпоғистонда ва Ўзбекистонда
хизмат кўрсатган артист,
«Ниҳол» мукофоти совриндори.

МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(5 – 11 январь)

Қўй (21.03 – 20.04). Бу давр янги режалар тузиш ва уларни амалга ошириш йўллари излаш учун жуда қулай. Ушбу ҳафта давомида ҳар қандай ташаббус ижобий натижа бериши эҳтимолли юсак. Ҳафта сўнгидан барча учрашувларни бекор қилган маъқул.

Бузоқ (21.04 – 20.05). Улкан иш режаларини тузишга ошиқманг, кутилмаган харидлардан ўзингизни тийишга ҳаракат қилинг, негаки бу ҳафтада пул йўқотишлар кузатилиши мумкин. Имкон қадар атрофдагилар билан зиддиятли муносабатларга борманг. Дўст-биродарларингиздан ёрдам сўрашга тортинманг.

Эгизаклар (21.05 – 21.06). Бу ҳафта учун мушкул вазифаларни режалаштирманг, сизга боғлиқ бўлмаган сабаблар туфайли уларни ўзгартиришга тўғри келиши мумкин. Ҳам шахсий масалалар, ҳам иш юзасидан кўп жойларда бўлишингиз кутилмоқда.

Қисқичбақа (22.06 – 22.07). Ушбу ҳафта сиздан катта масъулият талаб этади. Барча ишларингизни режа билан, аввало, энг муҳимларидан бошлаб амалга ошириш мақсадга мувофиқ. Жума куни сизни муваффақиятсизликлар таъқиб этиши мумкин.

Арслон (23.07 – 23.08). Душанбадан чоршанбагача хизматда юксалишга ёки бизнесни ривожлантиришга қаратилган ишларни белгилаб олинг. Бу даврда атрофдагилар билан имкон қадар ҳамкасблар ва ҳамкорлар билан баҳс-мунозарага бормаганингиз маъқул.

Паризод (24.08 – 23.09). Саломатликка жиддий эътибор қаратинг. Жисмонан оғир вазифалардан четлашиб, таъбни хира қилувчи барча ҳолатлардан узоқлашинг. Оддий ҳаёт тарзидан оз бўлса-да четга силжиш кайфиятингизга салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

Тарози (24.09 – 23.10). Келгуси ҳафта ижодкорлик ва ҳамкорликни ривожлантириш учун мақбулдир. Аввало, ташқи кўриниш ва саломатликка жиддий эътибор қаратинг. Жисмонан оғир вазифалардан четлашиб, кўнгилни оғритувчи барча ҳолатлардан имкон қадар узоқлашинг.

Чаён (24.10 – 22.11). Руҳий тушкунлик сизга бу ҳафта панд бериши мумкин. Ўз ҳисларингизни жиловлашга ҳаракат қилинг. Бу даврдаги учрашувлар ёқимли, баъзилари эса ҳатто эсда қоларли бўлади. Меҳмонга таклиф этишса, зинҳор рад этманг – бу ҳаётингизга ўзгача завқ бағишлайди.

Ўқотар (23.11 – 21.12). Барча режа ва ўйлаб қўйилган ишларни амалга ошириш учун омадли давр. Ушбу кунлар давомида ҳаётингизда молиявий, муҳаббат ва дўстлик масалаларида кескин ўзгаришлар кутилмоқда. Дам олиш кунлари ҳар томонлама ҳушёр ва кузатувчан бўлиш талаб этилади.

Тоғ эчки (22.12 – 20.01). Бу даврда, айниқса, ҳафта бошида ҳорғинлик ва чарчоқ ҳолати сизга ҳамроҳлик қилади. Ўзингизни ўзингиз руҳлантиринг ёки бу масалада дўстларингизга мурожаат қилинг.

Қовға (21.01 – 19.02). Ҳаётингизда жиддий ўзгаришларга тайёр туринг. Умрини иккинчи жуфти билан боғлашга улгурмаганларни бу ҳафта янги танишувлар кутмоқда. Кайфиятингиз ва руҳий ҳолатингизга эътиборли бўлинг.

Балиқ (20.02 – 20.03). Молиявий аҳволни яхшилаб олиш учун омадли давр. Фойдали алоқалар шарофати билан истеъдод ва қобилиятларни намоён этиш учун янги имкониятлар эшиги очилиши кутилмоқда. Дам олиш кунлари атрофдагилар билан тил топишиш, бошқаларнинг ўй-фикрларини тушуниш ва қабул қилиш осонроқ кечади.

Nuqtayi nazar

MULTIFILMNING

BOLALAR
TARBIYASIDAGI

Bolalik – beg‘ubor dunyo. Bolalarning rivojlanishi, ta‘lim olishi va ijtimoiylashuvi, shuningdek, atrof-muhitni o‘rganishida multfilmlar muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.



AHAMIYATI

Qiziqarli multfilmlarni nafaqat bolalar, balki katta yoshdagilar ham zavq bilan tomosha qiladi. Ko‘plab zamonaviy multfilmlar alifbo saboqlari, hisob raqamlari va asosiy fanlarni o‘z lavhalarida birlashtiradi. Ammo uning pedagogik tarbiyada yuqori natijani berishi uchun katalarning bola bilan birga tomosha qilingan film haqida suhbatlashishi, ko‘rgan narsalarini muhokama qilishi va murakkab vaziyatlarni tahlil qilishi muhimdir. Ota-onalar bilan sevimli mavzularda muloqot qilish ularga yanada yaqin bo‘lish, kattalar uchun esa farzandlarining qiziqishlari haqida ko‘proq bilish imkonini beradi.

O‘zbekiston aholisining 9 million-dan ortig‘ini 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar tashkil etadi. Aholining katta qismi bolalardan iborat bo‘lgan yurtimizda yiliga taxminan 10 ta multfilm ishlab chiqariladi. Xususan, «O‘zbekfilm» studiyasida «Sehrli sandiq», «Jasur chumchuq», «Qishki ertak» kabi ko‘plab qisqa va to‘liq metrajli asarlar suratga olingan.

Keyingi yillarda asarlar mavzusi yanada kengaydi. Mualliflar tomonidan sharq mumtoz asarlariga murojaat qilindi. Xususan, Alisher Navoiy asarlari asosida «Bahrom va Dilorom», «Qora saroy», «Farhod va Shirin», «Sher va Durroj» multfilmlari suratga olindi. Rassomlar

tarixiy mavzuga, xalq og‘zaki ijodiga murojaat qilgan holda, «Jaloliddin haqida doston», «To‘maris», «Spitamen», «Zardusht yulduzi» kabi multfilmlarni yaratishdi.

Bularning bari bejiz emas edi, albatta. Chunki ayni qiziqarli multfilmlar yordamida bolalar ruhiyatiga, ularning shaxs bo‘lib shakllanishiga katta ta‘sir ko‘rsatish mumkinligi bugun dunyo olimlari tomonidan qayta-qayta isbotlanmoqda. Afsuski, farzandlarimizni telefon, planshet yoki televizorga o‘zimizning multfilmlar emas, aksincha, turli g‘oyalar singdirilgan xorij animatsion mahsulotlari bog‘lab qo‘ygani bor gap. Beg‘ubor va

mitti qalblarni «oziqlantirish» chet el multfilmlariga qolib ketayotgani xavotirli haqiqatdir.

Tashvishlanarli tomoni, chet el multfilmlarining foyda yo zarari, yutuq yoki kamchiliklarida emas, balki nima sababdan hozirga qadar milliy auditoriyani ta‘minlashga yetarli milliy animatsion filmlar ishlab chiqilmayotgani, odob-axloq me‘yorlari singdiriladigan, mehr-oqibat, rahmshafqat, do‘stlik kabi insoniy fazilatlar, millat tushunchasi, vatanparvarlik tuyg‘usi shakllanadigan yoshdagi farzandlarimiz uchun milliy multfilmlar tanqisligi hamon muammoligicha qolib kelayotgani bilan bog‘liqdir.

Mamlakatimizda o‘zbek tilidagi bolalar qo‘shiqlari, milliy qadriyatlarimizni aks ettiruvchi multfilmlar, shuningdek, ta‘lim-tarbiya materiallari yetishmayapti. Oldimizda turgan vazifalarni bajarishda vaqtini boy bermaslik va o‘z kelayotgan yosh avlodimizga to‘g‘ri tarbiya asoslarini singdirish har birimizning burchimizdir. Bunda farzandlarimiz kelajagini aniq belgilab berishda sifatli multfilmlar ham o‘zining ijobiy natijasini beradi, albatta.

G‘ayratulla SHUKUROV,
o‘z muxbirimiz.

KECHA VA BUGUN



MUASSIS:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir
polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir
o‘rinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas‘ul muharrir
Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar
Gulnoza TURG‘UNBOYEVA
Yuliya KIM

TELEFONLAR:
71-231-33-88;

Obuna masalalari
bo‘yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g‘aznachiligi.

Shaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Manzilmiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko‘chasi 9-uy.

Buyurtma № 3809.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
46255 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko‘chasi 1^A-uy.